

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлиги

Бухоро давлат университети

Тарих факультети

Тарих кафедраси

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШ

МАВЗУ: “Амир Темури вафотидан кейин темурийлар
давлатининг сиёсий аҳволи (1405-1409 йй.)”

5220200 – “Тарих” таълим йўналиши бакалавр даражасини
олиш учун



З. Ҳасанов

(Signature)

Тарих таълим йўналиши
битирувчиси: Йўлдошев
Зухриддин

Илмий раҳбар: тарих
фанлари доктори,
профессор Тўраев Х.

Бухоро –2014 йил

Taqriz

Yo'ldoshev Zuhridinning "Amir Temur vafotidan keyin temuriylar davlatining siyosiy ahvoli(1405-1409y)" nomli bitiruv malakaviy ishida Amir Temur vafotidan keyingi temuriylarni siyosiy ahvoli batafsil yoritilgan. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, maqsad va vazifalar aniq faktlar asosida ko'rsatib berilgan. Bitiruv malakaviy ishning barcha rejalari o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishgan. Rejalarni yoritishda o'sha davr haqida qimmatli ma'lumotlarni bera oladigan Lyusen Keren, Herman Vamberi, Xilda Xukxem va boshqa shu kabi mualliflarning asarlaridan foydalanilgan. Bitiruv malakaviy ishning yakunida fikrlar xulosalangan.

Shunga qaramasdan Yo'ldoshev Zuhridin ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ygan:

1) Rejalarni yoritishda V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy kabi rus muarrixlarining asarlariga kam hollardagina murojat qilingan. Bitiruv malakaviy ishda V.V. Bartoldning "Temur va temuriylar" (Сочинения. Т-2. – Москва: 1963.), A.Yu. Yakubovskiyning "Samarqand Temur va temuriylar davrida" (Ленинград: 1933.) kabi risolalaridan ko'proq foydalanilsa ayni muddao bo'lardi.

2) Bundan tashqari, Amir Temur vafotidan keyingi siyosiy ahvolni tasvirlashda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy omillarning bu jarayonga ta'siri qay darajadaligiga to'xtab o'tilsa, siyosiy ahvolning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayot bilan chambarchas bog'liqligiga urg'u berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Yuqoridagi kamchiliklarga qaramay bitiruv malakaviy ishni yoritishda ko'plab xorijiy adabiyotlar yordamida o'sha davrning siyosiy ahvolini chuqur tahlil etgani, muallif ko'rilaётgan davr haqida o'z mulohazalarini bildirgani, bayonchilikdan voz kechib, mavzuni aniq detallar yordamida yoritgani uchun ushbu bitiruv malakaviy ishni himoyaga loyiq deb hisoblayman.



Ergashev A.A.
Jondor tuman 49-ixtisoslashtirilgan
davlat umumta'lim maktabining
tarix fani o'qituvchisi

Reja

Kirish

- 1.Xitoy yurishiga tayyorgarlik va Amir Temur vafoti
- 2.Temur vafotidan keyin toj-taxt uchun kurash
- 3.Shohruhning hokimiyat tepasiga kelishi

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalqi mustaqillikka erishishi bilan uning milliy o'zligini anglashiga katta imkoniyatlar yaratildi. Milliy davlatchilik asoslarimiz yaratilayotgan bugungi kunda tariximizning barcha sohaları qatorida ajdodlarimizdan qolgan siyosiy merosimizni chuqur va xolisona tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Zero, o'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixi ming yillar avval shakllangan bo'lib, bugungi kunda qurilayotgan davlat asoslarimiz tarixning bizga bergan tasodifiy imkoniyati emas. Tarixning ildizlar bor joyda taraqqiyot bo'lishi haqidagi o'zgarmas qonuniyatlari mavjud. Bu qoidalar bugungi kunda o'zbek davlatchiligi misolida o'z ifodasini topmoqda. Hozirgi davrda xalqimizning siyosiy merosini qayta tiklash va uni sayqallashtirgan, modernizastiya etgan holda davom ettirish davr ehtiyojiga aylandi.

Mustaqillik yillarida olimlar tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli tadqiqotlar ajdodlarimizning boy tarixga, o'ziga xos milliy davlatchilik ta'limotlariga, betakror ma'naviy merosga ega bo'lganligini ko'rsatmoqda.

1998 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda vatan tarixi fani oldida turgan dolzarb muammolar, jumladan, milliy davlatchilik tarixini har tomonlama va chuqur o'rganish, undagi ma'naviy asoslarga tayanish lozimligi haqida alohida ta'kidlab o'tdi.

Amir Temurning faoliyatini xolis o'rganishda Prezident Islom Abdug'aniyevich Karimov olib borayotgan siyosat alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, «Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida» (1994 yil, 29 dekabr), «1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qilish to'g'risida»¹ (1995 yil, 26 dekabr), «Temuriylar tarixi» davlat muzeyini tashkil etish va «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risida (1996 yil) qator farmon va qarorlar chiqarildiki, bu tadbirlar temurshunoslikning keyingi taraqqiyoti uchun katta zamin yaratdi. Amir Temurning dunyo sivilizastiyasi rivojiga qo'shgan hissasi, tarixdagi buyuk xizmatlari Birlashgan Millatlar tashkilotining talim, fan va madaniyat masalalari

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида”ги қарори // Тошкент ҳақиқати. – 1995 йил, 4 янв.

bilan shug'ullanuvchi YuNESKO tomonidan ham alohida e'tirof etilib, uning 660 yillik yubileyi keng nishonlandi.

Prezident Islom Karimov asarlarida Sohibqironning milliy davlatchilik tarixida tutgan o'rni, Movarounnahrda ozodlik, mustaqillikni qo'lga kiritish bilan birga markazlashgan davlat barpo etgani, saltanatni adolat va qonunlarga asoslanib idora etgani, ilm-fan ravnaqi uchun alohida e'tibor qaratgani hamda boshqa ulkan xizmatlari haqida ko'p marotaba ta'kidlab o'tilgan². Jumladan, «Shavkatli ajdodimizning o'lmas xizmatlari shundaki, u murakkab tarixiy sharoitda xalqning boshini qovushtira bildi. Istilochilarga qaqshatqich zarba berib, Turkiston zaminida ilk bor istiqlol bayrog'ini baland ko'tardi.

Parokanda mamlakatlar, ellar, elatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli saltanat tuzdi»³, – deya urg'u berdi.

Amir Temur o'z faoliyati davomida o'zbek va dunyo xalqlari manfaatlari uchun quyidagi vazifalarni ado etdi: birinchidan, yurtimizda ildiz otgan mo'g'ullar zulmiga uzil-kesil barham berdi. Ikkinchidan, mayda davlatlarga bo'linib ketgan, tarqoqlik, ichki urushlar va adolatsizliklar hukm surgan Movarounnahrni yagona davlatga birlashtirib, uning boshqaruv asoslarini shakllantirdi va mustahkamladi. Uchinchidan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat asoslarini barpo etdi. To'rtinchidan, saltanatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy asoslarini mustahkamladi. Beshinchidan, nisbatan qisqa vaqt ichida Movarounnahrni dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylantirdi. Oltinchidan, Osiyo, Afrika, Yevropa mintaqalaridagi xalqlarning tinchligi, farovonligi uchun katta xizmatlar qildi va xalqaro maydonda adolatni taminlash uchun kurashdi. Yettinchidan, turli din, millat, elat vakillari o'rtasida o'zaro aloqalarning o'rnatilishi oqibatida birinchi marta yagona makon va integratsiya g'oyalari shakllana boshladi. Saltanatda islom

² Каримов И.А. Амир Темур ҳақида сўз. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996; Ўша муаллиф. Азалий буюклик маскани / Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Жилд V. – Б. 171-174; Ўша муаллиф. Соҳибқирон камолга етган юрт / Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Жилд V. – Б.175-178; Ўша муаллиф. Адолат ва қудрат тимсоли / Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Жилд.V. – Б. 179-180; Ўша муаллиф. Амир Темур фаҳримиз–ғуруримиз / Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Жилд V. – Б. 181-191; Ўша муаллиф. Амир Темур давридаги бунёдкорлик ва ҳамкорлик руҳи бизга намуна бўлаверсин / Амир Темур–фаҳримиз, ғуруримиз – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 25-30 ва бошқалар.

³ Каримов И.А. Халқимиз бор экан ... – Б.169.

dinining ilmiy asoslariga, bag'rikenglik tamoyillariga tayanilib, davlat boshqaruvi amalga oshirilgan.

Amir Temur hukmronligi davrida davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari uyg'unlashtirilgan, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorlik o'rnatilgan. Davlat boshqaruvining muhim sohalaridagi faoliyat ana shu maqsadlar yo'lida tashkillashtirilgan hamda chiqarilgan qonunlar o'z vaqtida ijrosini topgan. Buning natijasida Amir Temur davlatida ilm-fan, manaviyat, me'morchilik va san'at beqiyos darajada rivoj topdi va fanda bu haqli ravishda ikkinchi Uyg'onish davri deb talqin etildi.

Umuman olganda, Amir Temur davlati o'zbek davlatchiligi tarixining eng rivojlangan bosqichini tashkil etadi. Saltanatda barcha sohalarda tub burilishlar, yuksalishlar kuzatilgan. Taraqqiyot uchun xizmat qilgan Amir Temur faoliyati bilan bog'liq tarixiy qadriyatlar allaqachon umuminsoniy qadriyat darajasiga yetib ulgurgan.

Prezident Islom Karimov «Amir Temur bizning sha'n - shavkatimiz, g'urur-iftixorimizdir. Amir Temur-xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir»⁴, – deya alohida ta'kidlashiga tarixda katta dalil va asoslar mavjud. Shuningdek, «Amir Temur-shaxsini idrok etish - tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash-o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash-tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib buyuk kelajagiga ishonchimizni mustahkamlash demakdir»⁵.

Shuningdek, markazlashgan va adolat tamoyillariga asoslanib boshqarilgan mamlakat asoschisining vafoti Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyatni o'zgartirib yubordi. Uning vafotidan keyingi to'rt yil Temuriylar davlatining keyingi taqdirini belgilab berdi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Amir Temurning dunyodagi eng kuchli va katta saltanatlardan birini barpo etganligi, harbiy san'ati, davlatni qanday asoslarga tayanib boshqarganini anglab yetish davrlar osha tadqiqotchilar hamda siyosatchilarning, arboblarning diqqat-e'tiborini tortib kelgan.

⁴ Каримов И.А. Халқимиз бор экан ... – Б. 167.

⁵ Ўша муаллиф. Азалий буюклик маскани ... – Б. 173.

Ularning ko'lamini to'g'risida umumiy tasavvur uyg'otuvchi bibliografik tadqiqotlar fikrimizga dalildir⁶. Jumladan, E.V. Rtveladze, A.X. Saidov jahon miqyosida Temur tarixini o'rganilganlik darajasini aniqlash borasida izlanishlar olib borib, «Amir Temur dunyo fani ko'zgasida» nomli bibliografik asar chop etdilar⁷. Undagi ma'lumotlarga ko'ra, Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 700 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 dan ko'pdir. Bu asarlarda Amir Temur shaxsi va saltanatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotiga turli baholar berilgan.

Asrlar osha Amir Temur goh qattiqqo'l va zulmkor, goh adolatli va talabchan hukmdor sifatida talqin etib kelingan. Bu kabi turli baholarning paydo bo'lishiga Amir Temur shaxsiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda yozib qoldirilgan ko'plab manbalar sabab bo'lgan. Xususan, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi mualliflar o'z asarlarida Amir Temurning davlatni adolatli boshqargani, xalq va davlat manfaatlari yo'lida keng ko'lamli siyosat yuritgani va boshqa xislatlarini yozib qoldirgan bo'lsa, Ibn Arabshoh «Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» nomli asarida Amir Temur va uning faoliyatiga salbiy baho berib o'tgan.

Mustabid sho'ro davrida K.Marks, F.Engels va V.I.Leninning asarlari barcha ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilar, ulardan iqtiboslar keltirilar hamda shunga monand qarashlar rivojlantirilar edi. “Dohiy”lar tomonidan yaratilgan “sinfiylik” nazariyasi ham Amir Temurni “ekspluatator”, “ezuvchi”, “bosqinchi”, “kallakesar” sifatida talqin etishni taqozo etar edi.

Ana shu tariqa manbalardagi ziddiyatli baholar, sovet davrining «sinfiylik» nazariyasi Amir Temur faoliyatini xolis yoritishda murakkabliklar tug'dirdi. Buning ustiga chekka o'lkalarning buyuk davlatchilik tarixini o'rganish mustabid SSSR manfaatlariga zid bo'lib, “bu o'lkalarda mustaqil va kuchli davlatlar bo'lmagan”, – degan fikrlarni singdirish asosiy masalalardan biri sifatida qo'yilgan edi.

⁶ Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. – 264 б.; Амир Темур жаҳон тарихида / Иш раҳбари С.Саидқосимов. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 296 б.; Алимов Р.А. Соҳибқирон Амир Темур (Методик тавсиянома). – Тошкент, 1995 ва бошқалар.

⁷ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой науки. – Ташкент: Издательский дом Мир экономики и права, 1999. – 352 с.

Yuqorida keltirilgan omillar ko'plab tadqiqotlarda Amir Temur faoliyatiga adolatsiz, salbiy baholar berilishida asos bo'lib xizmat qildi.

Sovet davrida aksariyat hollarda Amir Temur faoliyati salbiy jihatdan talqin etilishiga qaramay xorijiy sharq va g'arbda bu mavzuga oid haqli, ob'ektiv tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada g'arb olimlarining Amir Temur saltanati haqidagi ancha xolis tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ular orasida Fransiya Yevropa temurshunosligining yirik markazlaridan biriga aylanib borayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Bu yerda "Temuriylar davri tarixi, san'atini o'rganish va fransuz-o'zbek madaniy aloqalari Uyushmasi"⁸ faoliyat yuritmoqda. Bu uyushmaning va Fransiya chop etilayotgan "La Timuride" jurnalining faoliyatiga L. Keren rahbarlik qilmoqda. Ushbu jurnalda Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid qator ilmiy ishlar muntazam ravishda elon qilib borilmoqda.

Jumladan, Lyusen Keren⁹ ko'plab tadqiqotlarida Amir Temurning tarixdagi buyuk xizmatlari, uning davlatida adolat va qonun ustuvorlik qilganligi, «rahbar bo'lishdek tug'ma, ammo aqlga sig'maydigan tabiiy va sinoatli xislat sohibi»¹⁰ bo'lganini manbalardagi ma'lumotlar, tarixiy faktlar orqali ochib bergan. Uning tadqiqotlari ilmiy ommabop xarakterga ega.

Bu borada g'arbda salmoqli izlanishlar olib borgan olimlardan biri yana biri Xil'da Xukxemdir. U Amir Temurning shaxsi va faoliyatini xolisona tadqiq etishga harakat qilgan¹¹. Xilda Xukxem asosan Amir Temur faoliyatini umumiy tarzda yoritish bilan cheklanib, uning davlat boshqaruvini tadqiq etmagan.

O'zbekistonda ham Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatini xolis o'rganish, targ'ib qilish mustaqillikka erishilgandan so'ng keng miqyosda amalga oshirila boshlandi. O'tgan yillar davomida Amir Temur va uning davriga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

⁸ Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. – Тошкент: Адолат, 1996. – Б.15.

⁹ Керен Л. Амир Темур салтанати. Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 224 б. ва бошқалар.

¹⁰ Керен Л. Амир Темур салтанати... – Б. 169-170.

¹¹ Хукхэм Х. Властитель семи созвездий / Пер. с англ. Г.Хидоятова. – Ташкент: Адолат, 1995. – 320 с.

A.A. To'laganov tomonidan "Amir Temurning o'zbek davlatchiligining rivojlanishida tutgan o'rni va mavqei («Temur tuzuklari») misolida»¹² mavzusidagi tadqiqot amalga oshirildi. U «Tuzuklar»ning yaratilish tarixi, uning Movarounnahrdagi siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixini o'rganishdagi ahamiyati, Amir Temurning davlatni idora etishga oid tamoyillari, tadbirlari va tashkil etilgan davlat kengashlarining davlatchilik tarixidagi o'rni masalalariga e'tibor qaratgan.

Tarixchi olim Azamat Ziyoning «O'zbek davlatchiligi tarixi» asarida ham Amir Temur saltanatidagi davlat boshqaruvi tizimi borasida to'xtalib o'tilgan¹³. Tadqiqotchi Amir Temurning markazlashgan davlat qurishi davriga oid tarixiy jarayonlarni qisman tahlil etgan.

Bulardan tashqari, B. Ahmedov, A. O'rinboev, D. Yusupova, A. Ahmedov, U.Uvatov, O.Bo'riev, B. Mannonov kabi ko'plab olimlar Sharqshunoslik instituti fondida, chet el kutubxona va arxivlarida saqlanayotgan Amir Temur davriga oid birlamchi manbalarni o'zbek va rus tillariga o'girish bilan birgalikda keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib bordilar va noyob ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritdilar.

Shuningdek, mustaqillik yillarida qator olimlar tomonidan Amir Temur va uning faoliyatiga bag'ishlab bir qancha salmoqli ilmiy tadqiqotlar yaratildi va katta ishlar olib borilmoqda¹⁴. Bu ishlar orasida "Amir Temur jahon tarixida" deb nomlangan yirik fundamental tadqiqotni ham alohida ta'kidlab o'tish joiz. Unda Amir Temur davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid qimmatli tahlillar, davlatchilik tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar berilgan¹⁵. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 avgustdagi farmoyishi bilan bu ulkan tadqiqot to'ldirildi va 2001 yilda qayta nashr etildi¹⁶.

¹² Tўлаганов А.А. Амир Темурнинг ўзбек давлатчилигининг ривожланишида тутган ўрни ва мавқеи («Темур тузуклари» асосида): Юрид.фан. номз. ... дисс. автореф. – Т.: ТИИВ Академияси, 1996. – 24 б.

¹³ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 368 б.

¹⁴ Амир Темур жаҳон тарихида / Иш раҳбари проф. С. С. Саидқосимов. – Тошкент: Шарқ, 1996; Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996; Амир Темур ва унинг дунё тарихида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1996; Бобоев Ҳ. Б. Амир Темур ва унинг қарашлари. – Тошкент: Адолат, 1992; Бўриев О. Амир Темур даврида Мовароуннаҳр ва Мўғулистон муносабатлари // Шарқшунослик. – Тошкент, 1996. – №7. – Б.37-44; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997; Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. ... ва бошқалар.

¹⁵ Давлат бошқаруви / Амир Темур жаҳон тарихида ... – Б. 64-69.

¹⁶ Амир Темур жаҳон тарихида / Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи наشري. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 304 б.

Yuqorida ko'rsatilgan fundamental adabiyotlarga qaramasdan, Temuriylar davlati tarixini qisqa xronologiyada, qismlarga bo'lib o'rganish foydadan xoli bo'lmasligini inobatga olib, Sohibqiron vafotidan keyingi qisqa davrni maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida tanladim.

Maqsad va vazifalari. Amir Temur vafotidan keyin Temuriylar davlatida yuz bergan siyosiy jarayonlar va ularning Temuriylar davlatining keyingi taqdiriga ko'rsatgan ta'siri, hamda ushbu o'zgarishlarning siyosiy jarayonlardagi o'rni, Shohruhning hokimiyat tepasiga kelishi, Temuriylar davlatining ikki qismga bo'linib ketishi kabi masalalarni atroflicha ochib berish.

Bitiruv-malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv-malakaviy ishi kirish, uch reja, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1.Xitoy yurishiga tayyorgarlik va Amir Temur vafoti

Amir Temur mashhur yetti yillik yurishdan(1399-1404) g'alaba bilan qaytib kelgach, o'z g'alabasining sharafiga katta ziyofat beradi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, mazkur sayl-ziyofat asnosida o'zining 9 yoshdan 17

yoshgacha bo'lgan 5 nafar nabirasining unashtiruv to'yini ham qo'shib o'tkazadi. O'sha davr tarixchilarining hamjihatlik bilan xabar berishicha, mazkur sayl g'oyat katta tantana bilan o'tgan. Buni Sharafuddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida quyidagicha ta'riflaydi: "Sohibqiron Konigilda yakshanba kunida rabi' al-avval oyining avvalida, torix sakkiz yuz yettida (07.09.1404) borib tushdi... Va ul yer aning maqdamidin firdavsbarindek orasta bo'ldi... Va bu to'ydin g'araz bu erdikim, shahzodalarni kadxudo (ya'ni uy egasi qilish, uylantirish demakdir) qilg'ay... Sohibqiron davlatidin barcha faqiru miskin g'aniy bo'ldi va hazrat davlatu saodat bilan taxt ustida chiqib majlisni orosta qildilar. Va xonimlar va og'olar (va kelinlar) barcha o'zlarini yasab, yuz hashamat va noz bila o'lturdilar. Shahzodalar va beklar har biri o'z yerida o'lturdi. Va elchilarkim, yetti iqlimning (to'rt tarafidin) kelib erdilar, o'n ikki poyaning ko'lankasida o'lturdilar. Barchlarig'a zarbof to'nlar, oltun kamarlar berdi. Va ikki oyg'acha to'y bahonasi bila ayshu ishrat qildilar"¹⁷.

Temuriylar davrining yetuk muarrix Muiniddin Natanziyning 1412-1414 yillarda fors tilida yozilgan "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" ("Muiniy tarixlari tanlanmasi") asarida bergan guvohliklari yuqoridagi to'y marosimining dabdabasi tog'risidagi fikrlarni tasdiqlaydi: "Alqissa, har bir kishi ko'ngli tusagan tarzda bemalol xursandchiligu ishratga mashg'ul bo'lib, nozanin umrini nozaninlar poyqadamiga sarf etardi... Ushbu tariqa va tarzda qirq kun davom etib, aytib o'tilganidek, har kim ko'ngli tusagancha xursandchilik va ayshu ishratga berildi. Shundan so'ng muborak bir kunni belgilab, katta to'yga mashg'ul bo'lishdi. Saltanat taxti davlat o'rindiqi bilan bezanib, og'o-xotun, qiz-kelinlar o'tirgan gilamlarga dasturxonu idishlar qo'yilgach, suchi (soqiy, kosagul. Doerfer. Turkishche... B. III, S. 285.) va xirovchilar (ashulachi ma'nosidagi yirovchi so'zining bir shakli B. IV, S. 233.) o'z ishlarini bajarmoqqa kirishdilar"¹⁸.

Turk tarixchi olimi Ismoil Akaning "Buyuk Temur davlati" asarida keltirishicha, 1404-yilning iyulida Samarqandga yetgan Temur qurilish faoliyatlarini davom ettiradi, kunbotarda qozongan g'alabalari evaziga qutlov

¹⁷ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концернининг Бош тахририяти-1997. Мухаррирлар: Б. Сайидаминов, С. Рафъиддинов, И. Шоймардонов. Б. 290-291.

¹⁸ Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. (Муиний тарихлари танланмаси). Т.: Ўзбекистон-2011. Масъул муҳаррир-Асомиддин Ўринбоев. Б.-182.

to'ylari o'tkazadi. Bu to'ylarda Temurning nevaralaridan oltitasi va Bursadan asir olib keltirilgan Shamsiddin Jazariyning ham nikoh to'ylari Samarqand bosh qozisi ishtirokida, Hanafiya mazhabi qoidalari asosida o'tkaziladi¹⁹.

To'y tafsilotlari haqida Kastiliya qirolining Samarqandga-Temur saroyiga yuborilgan elchisi Rui Gonsales de Klavixo ham o'zining "Kundalik"ida batafsil yozib qoldirgan²⁰.

Ammo Sohibqiron²¹ Amir Temur yetti yillik yurishdan qaytgach, hali hordiq chiqarib ulgumasdanoq tarixda mashhur Xitoyga qarshi yurishga taraddudlandi.

Shu o'rinda Amir Temur davlatining Sharqning buyuk mamlakati Xitoy bilan munosabatlari to'g'risida ikki og'iz so'z. "Tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinishicha, ikki o'rtadagi munosabatlar Sohibqiron davrida u qadar do'stona bo'lmagan. Bunga Xitoy davlati hukmdorlarining yuritgan buyuk davlatchilik siyosati sabab bo'lgan edi. Min imperatorlari Xitoyga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni Xitoyga qaram mamlakatlar, xalqini esa Xitoyning tabaalari deb hisoblar edilar. Amir Temurning elchilari va savdogarlari olib brogan sovg'a-salomlarni esa o'lpon deb bilardilar. Temur ham Xitoy elchilari bilan shunga yarasha munosabatda bo'lardi. Klavixoning "Esdaliklar"ida bunday ma'lumotni uchratamiz"²².

Xitoyda 1368-yili qo'zg'olon natijasida Yuan' mo'g'ul sulolasi tugatilib, yirik markazlashgan Min saltanati²³ tashkil topdi. Min sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi va uni mustahkamlash bilan bog'liq tadbirlar Xitoyning boshqa davlatlar, jumladan Amir Temur davlati bilan savdo-elchilik aloqalarini to'xtatib qo'ydi. Shu sababdan, XIV asr ikkinchi yarmining dastlabki ikki o'n yilligi davomida musulmon manbalarida ham, Xitoy manbalarida ham savdo-elchilik aloqalari bo'lganligi qayd etilmagan. Amir Temur 1389-yili Mo'g'ulistonni uzil-kesil o'z tasarrufiga kiritgach, Xitoy bilan savdo aloqalari tiklandi.

¹⁹ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Т.:Чўлпон-1996. Т. Каххор таржимаси. Б.-35.

²⁰ Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). Масъул муҳаррир-Муҳаммад Али. Т.:Ўзбекистон-2010. Б. 185-186.

²¹ Amir Temurning laqabi, "sohib"- ega, "qiron"- ilmi nujumda ikki sharofatli sayyora. Zuhra (Venera) va Mushtariy (Yupiter) o'z harakatida bir-biriga yaqinlashgan holatni "qiron" burji deb atab, uni baxt-saodat alomati,deb fol ko'rilgan; sohibqiron-mazkur ikki sayyora bir-biriga yaqinlashgan paytda tug'ilgan baxtiyor podshoh demakdir. Хильда Хукхем. Етти иклим султони. Т.:Адолат-1999. Масъул муҳаррир-Ҳасан Тўрабеков. Б.-55.

²² Бўрибой Ахмедов. Амир Темур дарслари. Т.:Шарқ-2001. Б.-77.

²³ Xitoyda 1368-1644 yillarda hukmronlik qilgan sulolaning nomi. (Y.Z)

Mazkur munosabatlar Xitoyda Min sulolasining dastlabki hukmdori imperator Chju Yuan'chjan (boshqa ismi Tayszu, laqabi Xun'u; hukmronlik yillari 1368-1398) hukmronligi vaqtiga tog'ri keladi.

O'sha davr Xitoy manbalaridan biri "Min shi lu" ("Min sulolasi imperatorlari hukmronligi haqidagi haqqoniy xotiralar") da 1389-1398 yillar mobaynida Xitoyga Amir Temur nomidan to'qqiz marta elchi kelganligi qayd etilgan. Xitoydan, o'z navbatida, 1395-yilda Fu An boshchiligidagi Samarqandga-Temur saroyiga elchilar yuborilgan; u Xitoydan qaytgan Amir Temur elchilari bilan yo'lga chiqqan edi. Bo'riboy Ahmedovning qayd etishicha, "Hazrat Sohibqiron 1395-yili kelgan Xitoy elchilari An-chji Dao bilan Go Szini ikki yildan keyin – 1397-yili qabul qildi. Mazkur elchilik Xitoyga 1405-yili qaytib brogan. "Min sulolasining tarixi"da Xitoy elchilarining Samarqandda qariyb o'n yil qolib ketishiga "o'lpon" xususidagi tortishuvlarning cho'zilib ketganligi sabab qilib ko'rsatilgan²⁴.

O'rta Osiyo tarixining bilimdoni akademik V. V. Bartoldning Amir Temur hamda Min sulolasining tarixiy manbalaridan olib bergan ma'lumotlariga qaraganda, 1387-yilda Amir Temur Mavlono Hofiz nomli kishini Xitoyga elchi qilib yuboradi. Xitoy imperatoriga elchi bilan birga boj tariqasida 15 ta ot va 2 ta tuya jo'natgan. Shundan so'ng ot va tuyalar har yili jo'natib turilgan. 1392-yilning bojiga bir to'p mato ham qo'shib yuborilgan. Mazkur elchilar Xitoydan qaytayotganda, Xitoy imperatori sobiq mo'g'ul sulolasi hukmronligi davrida Gansu viloyatida o'rtnashib qolgan 1200 nafar musulmonni ham elchilarga qo'shib Samarqandga jo'natgan. 1394-yilda Amir Temur Xitoyga 200 ta ot jo'natgan. Shuningdek, Amir Temurning Xitoy imperatori nomiga yuborgan yorlig'ining xitoy tiliga tarjimasi keltirilgan. Yana manbada keltirilishicha, qaysi yilda ekanligi noma'lum, Temur tarafidan yuborilgan otlarning soni 1000 taga yetgan. Xitoy tomoni ham mazkur sovg'alar evaziga qimmatbaho toshlar, qog'oz pullar jo'natgan (qog'oz pullar elchilar tomonidan Xitoyning o'zida ishlatib yuborilgan bo'lsa kerak). Qanchalik tog'ri, Xitoydan Temurga birinchi marta elchi 1395-yilda kelgan. Elchilarning nomi An' Chji-dao va Go Szi bo'lgan. Elchilar Samarqandga

²⁴ Бўрибой Аҳмедов. Амир Темур дарслари. Б.-78.

odatdagidek Qoshg'ar va Farg'ona orqali emas, balki semirech'ye orqali kelishgan. Biroq, mazkur elchilarga o'z vatanlariga qaytish faqatgina Amir Temur vafotidan so'ng nasib etgan.

Fransuz tarixchisi Lyus'yen Keren Sohibqiron va Xitoy imperatori o'ratasidagi kelishmovchiliklar sababini quyidagicha izohlaydi: "XIV asrda ro'y bergan qo'zg'olon natijasida chingizxoniylar Xitoydan quvildilar, qo'zg'olon yetakchisi Ming Xong Vu taxtga o'tirdi va Movarounnahr hukmdori Amir Temurdan Pekin xoniga tegishli izzat-hurmatni endi o'ziga ko'rsatishni talab qildi. Imperator ikki elchisini bandi aylab va 1385-yili ozodlikka chiqarganidan so'ng Sohibqiron Xitoy imperatoriga har ikki-uch yilda sovg'a berib turish odatidan voz kechish yo'lini axtara boshladi, zero bu sovg'alar uzoq bir vassalning o'z xo'jasiga berib turadigan xirojiga o'xshardi... Biroq uning o'rniga taxtga o'tirgan Yung Lo ilgari imperatorga ko'rsatiladigan iltifotni davom ettirib turishni hayosizlarcha talab qildi"²⁵.

"Min shi lu" da yozilishicha, Xitoy imperatori 1395-yili Fu An' boshchiligida Samarqandga, Amir Temur huzuriga yana elchilar yuborgan va ular orqali imperator muhri bosilgan maxsus maktub ham yo'llagan. Fu An' boshchiligidagi elchilar Xitoydan 1395-yili yo'lga chiqqanligi to'g'risida "Min shi lu" da ham xabar bor. Ular Xitoydan qaytayotgan Amir Temur elchilariga hamroh bo'lganlar²⁶.

Sharfiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridagi ma'lumotga ko'ra, mazkur elchilar hijriy 800 (1397) yilning qishida, Amir Temur Sirdaryo bo'yida, Toshkent viloyatining Chinos (hozirda yozilishi Chinoz) qishlog'ida qishlab turgan paytida, o'sha yerga yetib borganlar. Asar muallifining guvohlik berishicha, Xitoy tomondan Xitoy podshosining elchilari kelib, Sohibqiron huzurida bo'lgan, tortiqlar keltirgan, yaxshi qabul qilingan va qaytishga ruxsat so'ragan.

Fu Anning ushbu safari to'g'risida dastlab nemis olimi B. Bretshnayder yozgani ma'lum. Uning ta'kidlashicha, elchilar o'n ikki yil qolib ketganlar. Buning asosiy sababi, Xitoy imperatorining o'z maktubida Amir Temur elchilar orqali

²⁵ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Т.:Маънавият-1999. Масъул муҳаррир-Хайриддин Султон. Б.-148.

²⁶ Омонулло Бўриев. Соҳибқирон Амир Темур. Т.:О'zbekiston-2011. Б.-68.

yuborgan sovg'larni o'lpon deb baholaganida bo'lib, bu haqda manbalarda aniq ko'rsatilgan. Masalan, Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'zining "Kundaligi"da Xitoy podshosi Chayskanning "boj talab qilib yuborgan elchilari..." deb yozgan. Xitoy solnomasi "Min shi lu"da ham:"...Fu An va boshqalar ushlanib qolindi, o'lpon kelishi ham to'xtadi", degan jumlaning o'qishimiz mumkin²⁷.

Agar biz Xitoy elchilarining ushlanib qolganligi to'g'risidagi to'g'risidagi ma'lumotni bilmaganimizda edi,- deb yozadi V.V. Bartold,- u holda bu so'zlardan, elchilar Xitoyga qaytib ketganlar, degan fikr kelib chiqqan bo'lar edi, albatta²⁸.

Amir Temurning g'azablangani asosli edi, Fu An' taqdim etgan va o'lpon so'ralgan maktub Xitoy imperatorining muhri bilan tasdiqlangan bo'lib, rasmiy hujjat sanalardi. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida Xitoy imperatorining nomi "To'ng'izxon" deb aytilganining sababi ham ehtimol shundandir. Amir Temurning Xitoyga yurishining sabablaridan biri ham Xitoy imperatorining boj talab qilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Elchilarning ushlab qolinishi, albatta yaxshilikdan dalolat bermas edi. Xitoyda mo'g'ul sulolasi hukmronligining tugatilishidan so'ng, hokimiyatga Min sulolasining kelishi Xitoydagi musulmon aholisining ahvoli yomonlashuviga olib keldi. 1398-yilda Xitoy imperatorining buyrug'i bilan yuz ming musulmon fuqarosi qirib tashlanadi. Bu voqealardan Amir Temur bexabar bo'lgan, deb bo'lmaydi. Chunki, Sharafiddin ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy va G'iyosiddin Alilarning yozishicha, 1398-yilda Amir Temur Xitoyga borib "butparastlar"ni qirib tashlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Amir Temur Xitoy imperatorining elchilarini ushlab qolgan bo'lsa ham, biroq ularning elchilik hurmatini saqlagan va o'zining buyuk hukmdor ekanligini ko'rsatish uchun, elchilarga saltanatning uzoq go'shalarigacha borib ko'rishni buyurgan. Shu asnoda Fu An' boshchiligidagi elchilarni mamlakatning ko'pgina joylariga (Movarounnahr, Xuroson, Eronzamin va b.) olib borganlar. Undan tashqari, Fu An' rasmiy qabul marosimlarida ham Sohibqironning a'yonlari

²⁷ Каримова Н.Э. Взаимоотношения народов Центральной Азии и Китая в XIV-XVII вв. (по материалам китайских источников). – Т.:2005. С.-108.

²⁸ Тургун Файзиев. Темурийлар шажараси. Т.:Езувчи-Хазина.-1995. Масьул мухаррир-Асрор Аҳмад. Б.-44.

qatorida o'tirgan. Kastiliya qiroli elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z "Kundaligi"da Samarqandda Amir Temur huzurida bo'lganida, u yerda Xitoy elchilari o'tirgani haqida yozadi²⁹. "Klavixo kelgan yili (1404-y.) Samarqandga Xitoy imperatorining elchilari ham kelgan edilar. Ular o'lpon talab qilib kelgan ekanlar. Eshikog'aboshi (podshoh qabullarini uyushtiruvchi mansabdor, saroybon-B.A.) boshqa mamlakat elchilarini (Ispaniya elchisini ham) Xitoy elchisidan keyin o'tqazib qo'ygan ekan. Amir Temur buyurib, ularning o'rinlarini almashtirib qo'ygan"³⁰.

1399-yil qish faslida Amir Temur Qorabog'da qishlayotgan paytda, Min sulolasining asoschisi Xitoy imperatorining vafot etgani haqida xabar keladi. Xabarda go'yo marhum imperator o'limidan oldin qandaydir arzimagan bahona bilan yuz ming musulmon fuqarosini qirib tashlashga farmon bergan va shu yo'l bilan o'z mamlakatini islomdan batamom tozalagan, degan mubolag'ali ma'lumot ham kelgan edi. Tabiiyki, o'zini dini islom homiysi hisoblagan Sohibqiron shakkok imperatorning aqlini kiritib qo'yishga qaror qilgan edi.

Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z "Kundalik"ida Temur huzurida bo'lib turgan paytda Samarqandga kelgan Xitoy elchilarining tashrifi haqida quyidagilarni keltiradi: "Shu yili iyun oyida Kambalek³¹ shahridan qariyb sakkiz tuyadan iborat savdo karvoni Samarqandga keldi. Samarqandda turgan Temurbek Xitoy elchilarining talabidan g'azabi qaynab, karvonni shahardan chiqarib yubormasdan tutish haqida farmoyish berdi"³².

Mazkur voqealar bayonini ingliz adibasi Xilda Xukxem o'zining "Yetti iqlim sultoni" asarida quyidagicha tasvirlaydi: "1403-yili Min' sulolasining yosh valiahdi o'z amakisi tomonidan tor-mor etildi. O'sha amaki Samoviy saltanatning poytaxti Nankinni egallab, o'zini xoqon Yun-Lo deb e'lon qildi. Xitoy elchisi An va uning guruhi Movarounnahrda qaytmagandi. Min' sulolasidan chiqqan yangi xoqon Temur huzuriga boshqa elchi yuborarkan, Anni ozod qilishni, an'anaviy "o'lpon yuborish va uni e'tirof etishning boshqa choralarini ko'rish"ni talab qildi. Klavixo yetib kelganida, elchi hamon Samarqandda edi; shubhasiz u o'sha-

²⁹ Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. Б. 201-202.

³⁰ Бўрибой Аҳмедов. Амир Темур дарслари. Б.-78.

³¹ Хонбалиқ (Pekin shahri-Y.Z.).

³² Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга-Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. Б.-202.

ispanlar qarshisida kamsitilgan, Temur qabulxonasida eng quyi joyga o'tqazilgan mursal(elchi) edi. Xitoy xoqoni o'lpon talab qilmoqda va bu o'lponni Sohibqironning o'zi olib borishi lozim edi!"³³.

"Kutilmaganda yuqorida tilga olingan diplomatik ko'ngilsizlik ro'y berdi: u Kastiliya qirolining choparlari huzurida Chin elchisini beixtiyor tahqirlab qo'ydi, bu esa urush e'lon qilishga o'xshab qoldi"³⁴.

Endi ikki o'rtada urush bo'lishi muqarrar edi. Buni mojar sayyoh-olimi Herman Vamberi o'zining "Buxoro yoxud Movaronnahr tarixi" kitobida shunday tasvirlaydi: "Turli elchilarga rasmiy qabul majlisida ham Temur Xitoy imperatorining elchisiga o'zining ko'ngli bo'lmaganligini anglatgan edi. Binobarin, Osiyoning yarmini fath etgan shavkatli Kambala (Xitoy) hukmdorining elchisi uni yillik xiroj to'lab turishga ko'ndirmoqchi bo'lganda, Temur g'azabiga chiday olmagan edi. Masxaralangan izzat nafi unga hech bir tinchlik bermadi. Urush bo'lishi aniq edi"³⁵.

Sohibqironning Xitoyga yurishiga bir qancha sabablar ko'satiladi. Ulardan biri anchadan buyon aniqlanmay kelayotgan munosabatlarga aniqlik kiritish bo'lsa, yana biri Amir Temurning o'zini muqaddas islom dinining homiysi va himoyachisi deb e'lon qilgani va shu sababdan g'ayridinlarni islom diniga kiritishni o'zining maqsadi deb e'lon qilganligida edi. Shuningdek, bu yurishdan ko'zlangan maqsad Xitoyning Mo'g'ulistonni bosib olishiga yo'l qo'ymaslik edi. Temur, bordi-yu, Xitoy Baykal va Amurgacha mustahkamlanib olsa, Qashqar va Jung'oriya tarafidan uning saltanatiga tahdid solishi mumkinligini inobatga olgandi³⁶. Ammo shu narsa aniqki, bir mintaqada ikki kuchli imperiyaning mavjudligi ularning manfaatlariga to'g'ri kelmas va ulardan faqat bittasining bo'lishini talab qilardi. Buni ingliz yozuvchisi Xil'da Xukxem quyidagicha tasvirlaydi: "Temur hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab, Xitoyda hokimiyatni qonunga xilof ravishda tortib olgan shaxslar hohukmronlik qilib kelardi. Yetti qalandar bir bo'yraga sig'gani

³³ Хильда Хукхем. Етти иклим султони. Б.-287.

³⁴ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-287.

³⁵ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-1990. Нашрга тайёрловчи-Сирожиiddин Аҳмад. Б.-46.

³⁶ Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. Тарихий очерк. Т.: Комуслар бош тахририяти-1994. Б.-74.

bilan ikki podsho yetti iqlimga sig'mas"³⁷.

Bu savolga temuriylar davri tarixnavisi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sidan javob topgandek bo'lamiz. Muallifning guvohlik berishicha: "Bu mahaldakim, hazrat sohibqiron Shomu Rum va Gurjistonda va Eronning bo'lgan viloyatlarini zabt qilib, yana qaytib viloyatig'a, ya'ni Samarqandqa davlat va saodat bila kelib tushti va to'ylar qilib, necha kun ayshu farog'at qilg'ondin so'ng shahzodalar va beklar bila kelishib dedikim, "Hazrat Parvardigor bizga mundoq davlat berdikim, olamni qilich zarbi bila olduk va yer yuzidagi podshohlarni muti' qilduq. Val hamdu li-Lloh taolokim, ul nimakim bizga muyassar bo'ldi, podshohlardan kam kishiga muyassar bo'lg'ondur. Emdi xotirimizda andoq kecharkim, mundin nari kofirlar sori mutavajjih bo'lub, g'azo qilg'aybiz. Va ul dinsizlarni dinoyati ilohiy bila iymon yo'lig'a kiyurgaybiz. Xitoyi Chin sori yurug'aybiz. Va andag'i butxonalarni va otashkadalarni buzdurg'aybiz va alarning o'rnida masojid va xonaqohlar imorat qilg'aybiz"³⁸. Shahzodalar va beklar barcha tillarini duo bilan ochib, sitoyish va ofarin qildilar"³⁹.

Yana bir o'sha davr mualliflaridan Muiniddin Natanziy yuqoridagiga o'xshash fikrlar bilan guvohlik beradi. Chunonchi, u o'z asarida "Shundan so'ng sohibqiron komronlikdan jahonbonlikka tutindi va mulku millat, dinu davlatni mustahkamlash yuzasidan durust fikrlar qila va ma'qul rejalar tuza boshladi... Endi yoshi ulug'ligida sulton sohibqiron ko'p yillardan beri sharif xotirida mustahkamlab va qat'iylashtirib kelayotgan niyatiga binoan, g'olib askarlarni Xitoy tarafga otlantirib, ul sarhadlarni kofirlardan tozalashga qaror qildi va bu borada a'yonlar va arkoni davlat bilan mashvarat o'tkazdi. Barcha bir ovozdan bu niyatni ma'qullashda bir ovozdan mubolag'alar qildilar"⁴⁰, deb qayd etadi.

Fransuz tadqiqotchisi Lyus'yen Keren yuqoridagi sabablarni rad qilmagan

³⁷ Хильда Хукхем. Етти иклим султони. Б. 294-295.

³⁸ Bu yerda muallif Sohibqiron nomidan qanday so'zlarni aytganidan qat'iy nazar, uning Xitoyga yurishining yana bir boisi bor edi. Temur va uning avlodlarining Jetaga qilgan yurishlari natijasida uning mulki Lobnor ko'ligacha yetib, Xiyoy imperiyasi bilan chegaradosh bo'lib qolgan edi. Imperator esa Temurga yuborgan maktubida uni "o'g'lim"derdi. Sharqona diplomatiya tilida esa bu "sen menga tobe'san" degani edi. Hatto imperator Temurdan yillik soliq to'lashni talab qilardi. Shunday qilib, Xitoy hukmdori g'arbdagi yerlarga da'vogarligini sir tutmas va qachondir uning bu yerlarga hujum qilish xavfi bor edi. Ana shuning uchun Temur yetti yillik urushdan qaytganiga besh oy to'lmasidan shoshilinch Xitoyga yurish boshlaydi. Chunki uning ayg'oqchilari uni Xitoydagi ahvoldan xabardor qilib turardilar. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Б.-353.

³⁹ Ўша асар. Б.-292.

⁴⁰ Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. Б.-184.

holda “oltmish to’qqiz yoshli fotihni Chinni fath etish haqida o’ylantirgan narsa, bir tomondan, Movarounnahrni Chin imperatoriga bog’lab turgan, yillar o’tishi bilan suayib qolgan vassallik rishtalarini uzishni istashida edi”⁴¹, -deb ko’rsatadi.

Nihoyat, to’yu-tomoshalar poyoniga yetgach, Sohibqiron Konigildan ko’chib shaharga qaytdi va Bibixonim madrasasida to’xtab, Xitoyga bo’ladigan yurish masalalari hal qilingan maxfiy kengash o’tkazdi. Kengashda Mironshoh mirzo, Shohruh mirzo hamda Umarshyx mirzoning o’g’li Iskandar mirzodan boshqa barcha shahzodalar, no’yonlar, dorug’alar, Berdibek, Xudoydod Husayniy, Dodmalik, Pirmuhammad Tog’oybuko, Shohmalik, Shayx Nuriddin, Saodat Temurtosh kabi nufuzli amirlar chaqirildi. Maxfiy yig’ilishda bu katta yurish iker-chikirigacha bir boshdan tahlil qilindi. Majlis nihoyasida Amir Temur ulug’ amirlari va boshqa mutasaddilariga beto’xtov el-yurtlariga borib lashkar to’plash, qurol-aslaha, ot-ulov va bir oyga yetgulik oziq-ovqat zaxirasini tayyorlashni buyurdi. Shuningdek, bo’lajak yurish xayrli tugashi haqiga qurbonlik so’yilib, shahzodalar, amirlar va boshqa hukmfirmolar darajalariga yarasha qimmatbaho sarupolar, shamshir va xanjarlar, tilla va kumush kamarlar, asl zotli arg’umoqlar bilan siylanib, yurtlariga qaytishga ijozat oldilar. Taqdirganlar farzandu nabiralar qatorida yoshgina Ulug’bek mirzo ham chetda qolmadi. Unga Toshkent, Sayram, Yangikent, Tarozi, Ashpara va Jeta viloyatidan Xitoygacha bo’lgan mulk suyurg’ol bo’ldi. Ulug’bekning inisi Ibrohim Sultonga esa Andijon, Axsikat, Qoshg’ardan Xo’tangacha bo’lgan hudud berildi. Bu ikki nabiraga berilgan yerlarning talay qismi hali Amir Temur saltanatiga tobe’ bo’lmay, bo’lajak yurishda ularni zabt etish allaqachonlar rejalashtirib qo’yilgan edi.

So’ngra (hazrat Sohibqiron) Xitoy sari cherik tortmoqlikka azm ayladi va buyurdi: “Biz mashriq mamlakatini va ul tomon kofirlarini zabt etmoqlikni maqsad qilib qo’yganligimiz uchun sizlar, to biz ul yurishdan qaytib kelgunga qadar, har qaysingiz o’z sarhadlaringizda bo’lib, ahdlas hilgan qaror, yosoq uslubi va ulug’ to’ra yo’lidan chetga chiqmasligingiz lozim”⁴².

⁴¹ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-147.

⁴² Низомиддин Шомий. Зафарнома. Т.: O’zbekiston-1996. Масъул мухаррир-Омонулло Бўриев. Б.-395.

1404-yilning kuz kunlaridan birida Ko'ksaroyda o'tkazilgan harbiy kengashda Xitoyga yurish kelgusi yil(1405yil)ning bahorida boshlashga qaror qilindi. Kengashga har bir qo'shinning yurish paytidagi o'rni aniqlanib, qishlaydigan joylari belgilandi. Amirzoda Xalil Sulton bilan Amirzoda Ahmad va barong'or (o'ng qanot), amirlari Xudoydod Husayniy, Shamsiddin Abbas va boshqalar Shohruhiya, Toshkent va Sayramda, Amirzoda Sulton Husayn jangovar (so'l qanot)ning bir qismi bilan Yassi (Turkiston) va Sabronda, Amir Temurning o'zi qo'shinning markaziy qismi va nabiralari- Mirzo Ulug'bek, Ibrohim Sulton, Jahongir mirzo va Amirlardan, Berdibek, Shohmalik, Shayx Nuriddin, Sor bug'o va Xoja Yusufilar bilan Oqsulotda qishlaydigan bo'lishdi⁴³.

“Konigilda to'y-tomoshalardan keyin kekxa Temur yana davlat ishlari bilan band bo'ldi; o'yin-kulgi yana man etildi. Rasmiy harbiy mashvaratda aslzoda shahzodalar va amirlar Sohibqironga sodiq ekanliklari xususida ont ichdilar, dini islomni siquvga olgan Min' xoqoniga qarshi urushda, agar zarur bo'lsa, jonlaridan kechishga va'da berdilar. Agar bundan oldin Temurning qudratli qo'shinlari jinoyat qo'shini bo'lgan bo'lsa, endi Xitoy xoqonotidagi butxonalarni yakson qilib, poklanish marosimini o'tkazish va Allohning rahmatuga vosil bo'lish uchun qulay fursat vujudga kelgandi. Mazkur taqvodorlik ishi o'tmish xatolarini tuzatishda yordam bergan bo'lardi“⁴⁴.

U o'z odatiga amal qilib, qurultoy chaqirib, to'planganlarga qarata “Mening taxtga chiqqanimga ko'p yillar bo'ldi. Bu yillar ichida qalbimda ko'p gunohlar yig'ilib qoldi. Siz bilan birga men ko'p musulmon qonini ham to'kdim. Ammo buni oliy adolat talab etardi. Endi men bu qonni yuvish zaruriyatini his qilyapman. Uni ma'jusiylar qoni bilan yuvmoqchiman. Shu sababli Xitoyga yurish e'lon qilaman”⁴⁵,-deydi.

Shundan so'ng yurishga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Bu manzara Muiniddin Natanziyning asarida quyidagicha o'z ifodasini topgan: ”Shundan so'ng farmonga ko'ra, dargoh farroshlari safar saropardalarini tashqariga chiqarishdi,

⁴³ Мустафоев. М. Жаҳонгирнинг сўнгги кунлари//Бухоро ҳақиқати-1995, 24-май.

⁴⁴ Хильда Хукхем. Етти иклим султони. Б. 294-295..

⁴⁵ Жамилов.С. Соҳибқирон ўтган йўллар.//Ўзбек адабиёти ва санъати-2006, 7-апрель.

yurish ovozasi koinotga g'ulg'ula soldi va lashkar daryolari jo'sh ura boshladi"⁴⁶. Temur o'ziga kelgach, o'tlanishi kerak bo'lgan bo'lgan ufqlar tomonga jo'nashga tutindi; u tevarak-atroflarni, (ayrim) mamlakatu yurtlarni o'ziga xolis qilib olishni niyat qildi. O'z odatiga binoan yurish jilovini Xitoy tomonga burdi. Chunki (uning gumonicha) bu eng to'g'ri yo'l edi. O'z askarlari ummatlariga xabarchi yuborib, to'rt yil yoki undan ham ziyodga yetadigan tayyorgarligini ko'rib, hozirlanishlarini xabar qildi⁴⁷. "Saltanatning barcha barcha burchaklaridan tili va e'tiqodi turlicha bo'lgan lashkarlar Samarqand atrofiga yig'ilib, shaharning hunarmandu tikuvchilari ularga pishiq kiyim-boshlar tika boshladilar. Ulug' amir esa o'z topshirig'iga ko'ra, ancha paytdan beri Chin yo'lida joylashgan davlatlarning yo'llari, harbiy salohiyati, tabiiy boyliklari va iqlimi bo'yicha yig'ilgan ko'pdan-ko'p ma'lumotlarni diqqat bilan o'rgana boshladi"⁴⁸.

Kuni bitayotganini sezgan ulug' Amir bahor kelishini kutib tura olmasdi. Uning farmoniga binoan lashkarlarga issiq ko'ylaklar, qavilgan kiyimlar va qalin to'nlar tarqatildi; temir g'ildirakli 500 aravaga qo'sh yopqichli chodirlar yuklandi, zaxira otlar hamda qimizi qiyin lahzalarda askarlarga asqotadigan bir necha ming biya ham safarga tayyorlab qo'yildi. Qo'shin o'tishi mo'ljallangan o'lkalarga ilg'or qismlar jo'natildi, ularga yo'l yoqalariga bug'doy ekish topshirildi, toki qish tugab, biror-bir favqulotda holat ro'y bergudek bo'lsa, qo'shin och qolmagay.

Yurishga tayyorgarlik jarayoni Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida quyidagicha o'z aksini topgan: "Maqsud bu so'zdin bu tururkim, hazrat sohibqiron komkor g'azo niyati qilib... sovuqqa hech boqmay, betavaqquf Xitoy sori mutavajjih bo'ldi. Va Burunduqbekni buyurdikim, cherikning sonini olg'aykim, ne miqdor kishi bu yurushda borg'usi turur. Burunduqbek (Konigildagi hujjatlarni) ehtiyot bila tahqiq qilib, arzadosht qildikim, Movarounnahr va Turkiston va Xorazm va Balx va Badaxshon va Xuroson va Seiston va Mozandaron va totor qavmidinkim, Rumdin kelturub erdilar va (Eronzamin va Ozarbayjon va Iroqdin) ikki yuz ming otliq va yoyog' jam' bo'lub turur"⁴⁹.

⁴⁶ Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. Б.-184.

⁴⁷ Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур(Темур тарихида тақдир ажойиботлари). I китоб. Т.:Мехнат-1992. Масъул муҳаррир-Асомиддин Ўринбоев. Б.-318.

⁴⁸ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-148.

⁴⁹ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Б.-293.

Askarlari jam bo'lib, ishi va farmonlari bir bo'lgach, Temur besh yuz arava yasashlarini va (og'ir) yuklarini ortish uchun ular ustiga temir qoplashlarini buyurdi⁵⁰.

Qariyb 200 ming kishilik qo'shin yig'ilgandi... Movarounnahr qo'shinlari va ajoyib chig'atoy favjlari; Xuroson va Mozandaron qo'shinlari, Kichik Osiyo va boshqa joylardan olib ketilgan Qora qo'yunlining Seyiston va Afg'onistondagi qo'shinlari, shuningdek, Ozarbayjon, Eron va Iroqdan yetib kelgan qo'shinlar ham shu yerda edi⁵¹.

Temur o'zining harbiy yurishlariga nihoyatda puxta tayyorlanar, odatda har bir jangchining quroli va ozig'ini shaxsan o'zi ko'zdan kechirardi. Muarrixlarning yozishicha, har bir jangchi bir yilga yetadigan oziq-ovqat va boshqa buyumlar zaxirasi, to'rt xil qurol-yarog' - bir kamon va o'ttiz o'q-yoy, sovut va qalqonga ega bo'lishi lozim bo'lgan. Har ikki jangchida bir ot va har o'n kishida bir chodir, bir belkurak, bir ketmon, bir o'roq, bir arra, bir tesha, bir bigiz, yuzta igna, arqon, bir pishiq teri va bir qozon bo'lishi talab etilardi.

“O'nboshilar, yuzboshilar, mingboshilar va tumanot boshliqlari o'z qo'l ostidagi qo'shinning ahvolidan xabardor bo'lmog'i, hech bir kishining oziq-ovqat va qurol-yarog' yetishmaganligi oqibatida chekinishga haqqi yo'q edi. Har bir otliq askar o'n kishiga yetadigan oziq-ovqat, aslaha-anjomga ega bo'lishi shart edi. Aravalar karvoni yurish davrida Movarounnhordan tashqarida ekin ekish maqsadida urug'lik uchun g'alla olib yurgan. Toki bu yetishtirilgan, o'rib-yig'ilgan hosil yurishdan qaytayotgan qo'shinlarni boqishda asqatmog'i lozim edi. Har bir kishi o'zi bilan ikki bosh sog'in sigir va o'n bosh sog'in echki olgan. Xuddi shunday maqsadda minglab urg'ochi tuyalar yig'ilgan. Otliq askarlarga madad tariqasida uyur-uyur yilqilar haydab kelingan”⁵².

Qishning erta kelishi va qattiq bo'lishi kutilayotganiga qaramay, Movaraunnahr, Turkiston, Xuroson, Eron, Iroq va Mo'g'ul O'rdalaridan kelgan ikki yuz ming suvoriy saltanatning kumush ajdaho tasviri tushirilgan qora tug'i

⁵⁰ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-макдур фи тарихи Таймур. I китоб. Б.-319.

⁵¹ Хильда Хукхем. Етти иклим султони. Б.-297.

⁵² Хильда Хукхем. Етти иклим султони. Б. 297-298.

ortida saf tortib turardi⁵³.

“Xitoy bilan urush qilish uchun g’oyat katta qudratga ega bo’lmoq darkor”, - degan edi bir paytlar Amir Temur. U shimol tomon yo’lga tushgan qo’shinini kuzatar ekan, shi beqiyos qudratga erishganiga iymoni komil edi.

Uning rejasi bo’yicha muzlagan Sirdaryodan Turkiston shahri yaqinidan o’tilib, O’tror qal’asi zabt etilardi, so’ng Almaliq, undan keyin esa Turfon orqali o’tib Su-Chu qo’lga kiritilishi lozim edi. Aynan shu yo’ldan Marko Poloning amakilari o’tishgan, biroq ular bu ishni iliq va quruqchilik paytida amalga oshirishgan. Ammo hozirgi sharoitda Amir Temur lashkarlari bu masofani uch oyda bosib o’tishlari va bahorda Chin qo’shinlari ustiga qo’qqisdan hujum qilishlari lozim edi.

Nihoyat, yurishni boshlash fursati ham yetib keldi. Hijriy 807-yil jumodi ul-avval oyining 20-si payshanba kuni(milodiy 1404-yil 27-noyabr kuni) Amir Temurning xos munajjimi mavlono Bahriddin Sohibqiron hazratlarining amri bilan fol ochib, safar vaqtini belgiladi. 1404-yil 28-noyabr erta bilan Amir Temur ikki yuz ming kishilik katta qo’shinni yetaklab Samarqanddan chiqdi va qishlov joyi etib belgilangan Oqsulotga qarab yo’l oldi⁵⁴.

Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida yurishga chiqish tafsilotlari quyidagicha o’z aksini topgan:”Va Samarqandda Arg’unshohbekni qo’ydi va ganju zazina muhofizatini Shayx Churaga buyurdi va o’zi davlat bilan panjshanba kuni jumada al-avval oyining yigirmi uchida, torix sakkiz yuz yettida(27.11.1404), Oftob Qavs burjida erdikim, Samarqanddan chiqib, Oqsulot qishlog’ig’a tavajjuh qildi”⁵⁵.

O’sha yili qish juda qattiq kelganligi manzarasini Muiniddin Natanziy quyidagicha ifodalaydi:”Ittifoqan o’sha yili qish shu qadar qattiq keldiki, sovuq shiddati yerning yeti qavat tagidagi ho’kiz va baliqning ustuxonidagi ilikni muzlatib yubordi. Qor ko’p yog’ganidan tekis yer va tog’ orasidafarq qolmadi”⁵⁶.

Miyonkol vodiysidan Temur darvozasiga qadar lashkarlar uchun yurish quvonchli bo’ldi. Biroq, Toshkentdan shimolroqda qor yog’di. Yanada

⁵³ Зисеев Хамид. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг такдири. Т.:Маънавият-2008. Б.-94.

⁵⁴ Содик Ҳамдам. Соҳибкироннинг сўнгги сафари//Ўзбекистон овози-1995, 13-февраль.

⁵⁵ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Б.-293.

⁵⁶ Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. Б.-183.

shimolroqda esa achchiq ayozlar boshlandi. Qirg'iz cho'llariga yaqinlashgan sayin Temur lashkarlari odamlarni, chodirlarni va baland daraxtlarni uchirib ketgudek qudratli bo'ronga duch kela boshladilar. Ana shunday bo'ronlarning birida daraxt panasida dam olmoqchi bo'lgan vazir ustiga qor va muz juda ko'p tushgan daraxtning bir shoxi uzilib tushib, halok bo'ldi. Temur esa, "Qismat" deb qo'ydi.

Yo'lda qalin qor qoplagan o'lkalardan o'tdilar, kuchli ayozga duch keldilar, katta miqdordagi askarlar va jonivorlardan ayrildilar. Sovuq shu qadar kuchli ediki, ko'kdagi qushlar qotib yerga tushar, askarlarning nafasleri soqol-mo'ylovlariga yopishib qolar edi. Hirovul ayrim joylarda qorning qalinligi askarlarning ko'kragiga yetishini xabar qildi. Biroq, o'ziga ham, o'zgaga ham shafqat qilmaydigan va o'limni ortda qoldirishni istagan Amir Temur qo'shinini hech ikkilanmay shimol tomon boshlab ketardi.

Yurishni to'xtatish haqidagi fikr Temurning ko'ngliga mutlaqo kelmas edi. Ortga qaytish harbiy iqtidorlar uchun haqoratdek tuyular edi⁵⁷.

Havo o'tgan yildagiga qaraganda ancha sovuq edi, shuning uchun qishni Oqsulotda o'tkazish buyurildi. Bu yerdan atrofga maktublar, choparlar yuborildi; mo'g'ullar ustiga yurish uchun shahzodalardan Xalil Sulton Umarshayx o'g'li Ahmad bilan birga Toshkentga, Shohruhiyaga o'ng qo'l o'laroq yuborildi. Qizidan bo'lgan nevarasi Husaynni esa so'lqo'l o'laroq Sayramda qishlash uchun yubordi. O'zi O'trorga qarab yo'naldi⁵⁸.

Qaro Buloq mavzesida borib tushti. Shahzodalar va beklar har soridin har soridin yarog'larini qilib, cheriklari bila tavajjuh bo'ldilar. Hazrat Qaro Buloqdin ko'chub, Ilon o'tti yo'lig'a kirib yuridi va Tomliqqa kelib tushti. Va anda tushkonda ulug' qor tushti va havo asru sovuq bo'ldi. Hazrat andin ko'chub, Oqsulotga borib tushti va bu yer qumloq erdi va o'tuni ko'b. Ushbu yerda qishloq solib, evlar yasab o'turdilar. Shahzodalar va beklar o'zlari uchun evlar solib erdilar. Oftob Jadiy burjig'a kelgonda asru sovuq bo'ldi⁵⁹.

Saltanat poytaxti Samarqanddan chiqqan qo'shin Qora buloq, Ilono'tti va Tomliq orqali Oqsulotga kelib tushdi. Amir Temur Oqsulotda 50 kun turdi. Mirzo

⁵⁷ Мустафоев. М. Жахонгирнинг сунгги кунлари. Бухоро хакикати.-1995. 24-май.

⁵⁸ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Б. 36-37.

⁵⁹ Bu yerda eslatilgan Oqsulot, Qora Buloq, Ilon o'ti va Tomliq-Aris daryosining Sirdaryoga quyilish joyi atrofidagi mavzelar. Шафаруддин Али Яздий. Зафарнома. Б.-353.

Ulug'bek, Ibrohim Sulton, Jahongir Mirzo ham bobosi bilan shu yerda birga bo'lishdi⁶⁰.

Sulton Sohibqiron qishlov yurtini Oqsulot kasbasiga tayin qilib, shu yerga kelib qo'ndi. Boshqa lashkarlar Sayxun sohili bo'ylab qishlov uchun joylashib olishdi. Ittifoqan, ulkan samoviy jismlarning qironio'z xosiyatini zohir qilib, zaminu osmonni zamharir nafasi bilan muzlatib yubordi. Bu hol olam ko'rinishi va bani odam turmushiga ta'sir qilib, jahonning xursandchilik labiga g'am-anduh mixini qoqib bekita boshladi⁶¹.

Osmon hali Jadi burjidan⁶² og'magan, sovuq shiddati hali pasaymagan, qahraton qish va sovuq butun borliqni qaqshatib turardi. Deyarli har kuni qor yog'ardi. Shunga qaramay, Amir Temur o'sha hijriy 807 yil jumodi ul-oxir oyining 21-kuni (milodiy 1404 yil 26 dekabr kuni) Oqsulotdan ko'chib, O'trorga qarab yo'l oldi. Oqsulotdan Uzun Otaga, undan Sutkanga, u yerdan Kamarsho Otaga bordi va nihoyat, Sulton Shayx bilan Zarnuqni ham bosib o'tib, Sayhun(Sirdaryo) sohiliga yetib oldi.

O'sha kezlarda havo shu darajada sovib ketdiki, ko'pchilik akobirlaru zodagonlarning ba'zi a'zolarini sovuq oldi, oddiy odamlar va xodimlarning ko'pchiligi halok bo'ldi. Qavs (oyi) ning bosidan to hut (oyi)ning oxirigacha Jayhun va Sayhun daryolarining barcha kechuvlaridan lashkarlar, karvonlar, aravalar, fillar va hokazo muz ustidan o'tdilar. Sovuqning qattiqligidan til og'izda uyushib qolardi, (ona) qornidagi bolaga ham zarar yetishi aniq edi⁶³.

Oxirgi kunlari, o'chakishganday, qor tinim bilmay yog'ar, sovuq avvalgidan ham zo'rayib borar edi. Mol-holga ham, odamlarga ham qiyin bo'ldi o'sha kunlari. Ba'zi odamlarning qo'l oyoqlarini sovuq oldi. Daryo ham qalin va qattiq muzlagan edi. Oldinga yuborilgan qorovullar, ko'p taftishu tekshirishlardan keyin, muzning qalinligi ikki-uch gazga (taxminan 2 metr) yetganligini aniqlab qaytdilar. Oliy o'rdu muz ustiga tashlangan namat va gilamlar ustidan o'tdilar. Daryoning o'ng sohilida Amir Temurning xotinlari, shahzodalar, katta amirlar va Sohibqiron

⁶⁰ Мухаммаджонов А. Амир Темур ва темурийлар салтанати. Б.-59.

⁶¹ Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. Б.-185.

⁶² Jadi burji (tog' echkisi) - astronomiyada osmonning o'n ikki burjidan biri. Quyosh yili hisobida 22-dekabr dan 21-yanvargacha kechgan vaqt. Амир Темур васиятлари, маслахатлари, танбехлари. Масъул мухаррир-К. Норматов. Т.:Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти-2000. Б.-6.

⁶³ Низомиддин Шомий. Зафарнома. Б.-397.

navkarlarini O'tror hokimi Amir Berdibek boshliq shahar boyonlari, Yassi (Turkiston) hokimi Arslonxo'ja tarxon va Turkistonning ko'zga ko'ringan ulamolari, mashoyixlar va zodagonlar kutib olishdi.

Amir Temur o'sha yili rajab oyining 12-kuni (milodiy 1405 yil 13 yanvar kuni) O'trorga yetib bordi va Amir Berdibekning saroyiga kelib tushdi⁶⁴.

Nihoyat, O'trorga ham yetib kelindi. Lashkargoh tiklanib, shox-shabbdan gulxanlar yoqildi. Qal'a devorlaridan ufqqa qadar yastanib yotgan qorni ko'rgan akobirlarning ko'pchiligi ko'klamgacha shu yerda qolib ketishlariga amin edilar.

O'trorda faqatgina nafas rostlab o'tishni xayol qilgan oliy buyuk sarkarda esa Berdibekning saroyida to'xtadi. Birinchi tundayoq binoning tomiga o't ketdi, Sohibqiron qo'shinidagi mo'g'ullar buni yomon nishona, deb talqin qildilar. Qovg'a burjida uch sayyoraning bir-biriga yaqinlashganini kuzatgan munajjimlar falokatni bashorat qilganlarida, mo'g'ullarning kayfiyati butun qo'shinni egalladi.

Amir Temur saroy tomini tuzattirgandan keyin To'xtamishxon akobirlaridan birini qabul qildi; o'zining darbadar hayotidan noligan bu kimsa Sohibqironidan aybidan o'tishni hamda O'rda taxtiga o'tirishiga ko'maklashishini so'rattirgan edi. Ko'rnamak bu do'stiga nisbatan ko'nglida kiri bo'lmagan Amir Temur unga Xitoy yurishidan so'ng yordam berishga vada qildi⁶⁵.

Hazrat Sohibqiron O'trorda bir oydan ko'proq vaqt turdi. G'ulda (markazda) turishi kerak bo'lgan qo'shinlar esa O'tror tevaragidagi qishloqlarga olib borib joylashtirildi.

Shu kunlarda sovuq shu darajada qattiq bo'lgandiki, "til og'izda"da uyushib qolardi. Mana shunday qahraton qishda Sohibqiron dardga chalinib, ahvoli kundan-kunga og'irlashib bordi.

O'sha kunlari Amir Temur qattiq betob edi. Shunga qaramay, tez-tez Toshkent, Shohruhiya, Sayram va Turkistonga choparlar yuborib, u yerda turgan lashkarlarning umumiy ahvolidan xabar oldirar, amirlar, vazirlarini to'plab majlis va kengashlar o'tkazar, yaqin orada boshlanadigan katta harbiy yurish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni qayta-qayta muhokamaga qo'yardi. Kengashlarda Chingiziy o'g'lonlar ham qatnashar edilar. Ularning orasida Jo'chixonning avlodi Toshtemir

⁶⁴ Низомиддин Шомий. Зафарнома. Б.-397.

⁶⁵ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-159.

o'g'lon, To'xtamishxonning o'g'li Chehra o'g'lon, O'gaday qo'ning avlodi Toyzi o'g'lonlar ham bor edilar. Ular ham shu yurishda o'z qo'shinlari bilan qatnashayotgan edilar⁶⁶.

Shundan so'ng u yaqin kunlarda Samarqandga qaytishlari lozim bo'lgan malikalar shahzodalar shrafiga ziyofat berdi.

Ziyofat tafsilotlari xususida Amir Temur tarixining jonli guvohi bo'lmish Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma"sidan quyidagilarni o'qiymiz: "Bir necha kecha-kunduz bazm soqiylari qo'lidan to'la qadah va jom olib, go'zal parivashlar yuzidek gulgun boda va rayhondek (xushbo'y) sharob ichmoq ila g'animat tongi boshini murod yoqasidan chiqardi, aysh-ishrat quyoshi murod yoqasidan chiqdi. Shodlik manbai dilxushlik sarmoyasi bo'lmish sharob lashkari ketma-ket dimog' maydoniga ot surib, g'amning gerdaygan (bo'yni) va o'ylovning bozorini sindirar, xurramlik bog'lari-yu, ayshu tarab niholini yangidan yashnatar edi"⁶⁷.

Bazm uch kun davom etdi. Temur o'zini isitish uchun yana va yana may, o'tkir ichimliklar va turfa xil dorivorlar buyurardi. Maydan u sharobga o'tdi; biroq ovqatlarga qo'l urmadi.

Mana shu ziyofat chog'ida, ya'ni 1405-yil 12-yanvar kuni xuruj qilgan xastalik uni to'shakka yotqizib qo'ydi. Ayrim muarrixlar Amir Temur me'yoridan ortiq sharob va bo'za ichganini, oqibatda bedavo dardga yo'liqqanini yozadilar. Boshqalari esa uning a'zoyi badanini kuchli isitma qamradi, alahsiray boshladi va natijada jon taslim qildi, deya ta'kidlaydilar⁶⁸.

(Allohning) quli bo'lmish hazrat Sohibqiron yana ikki kecha-kunduz ushbu araqdan ichish bilan mashg'ul bo'ldi va birorta ovqatdan og'ziga olmadi. Keyingi kun muborak mijozida o'zgarish sezdi. (Misra): unda xumor alomati bo'lsa kerak, deyishdi. Tuzalish uchun yana bir-ikki qultum ichdi. Zohirida (sovuqlik) borligi sababli, isitma birmuncha taskin topdi, deb o'yladilar. Ammo me'da isigach, isitma ko'tarilib ketdi⁶⁹.

Bu yerda (O'torda-Y.Z.) uning kasali shu darajada avj oldiki, saroy tabibi Mavlono Fazlulloh bemorning holi umidsiz ekanligini to'xtovsiz e'lon etdi. O'lim

⁶⁶ Amir Temur wasiyatlari, maslahatlari, tanbeh-lari. B. 6-7.

⁶⁷ Низомиддин Шомий. Зафарнома. Б.-398.

⁶⁸ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-159.

⁶⁹ Низомиддин Шомий. Зафарнома. Б.-398.

bilan yuzlarcha marta yuzma-yuz kelgan Temur hayotining bu so'nggi daqiqalarida o'zining qahramonlik vazifasiga sodiq qoldi⁷⁰.

Kasallik sababi xususida ingliz adibasi Xil'da Xukxem esa bunday fikrda: "U oshqozon va ichak yallig'lanishi kasalligiga uchragandi. A'yonlar uning ichkilikka ruju qo'yishini xastalik oqibati deb baholadilar. Sohibqiron ichkilik ichishni to'xtatmadi, bu uning dardini battar zo'raytirdi. Tabiblar uning boshi va qorniga muz qo'ydilar. Saroyning tabibi hoziqi mavlono Fazl Tabriziy ham ularning orasida edi. Biroq na u va na boshqa tabiblar o'zlarining dori-darmonlari bilan xastalik jarayonini o'zgartira olmadilar. Kun sayin kuchayib borayotgan xastalik boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqardi"⁷¹.

Fikrimizcha, Amir Temurning kasallanish jarayoni ancha ilgaridan davom etib kelayotgan bo'lishi ehtimol. 1404-yilning kuzida Amir Temur yetti yillik yurishdan qaytib kelgach, Konigilda katta anjuman o'tkazadi. Bu anjumanda, Klavixoning ma'lumotiga ko'ra, Temurning chehrasida horg'inlikka o'xshash kasallik alomatlari zohiran ko'rinib turgan. Darhaqiqat, yetti yillik yurishdan qaytgan hukmdor aqalli besh oygina ham dam olmay, yana yangi yurish taraddudiga tushib, Xitoyga qarshi urush qilish uchun yo'lga chiqqan. Binobarin, uzluksiz yo'l mashaqqatlari qarib qolgan hukmdorga zimdan o'z ta'sirini o'tkazgan va, nihoyat "Temurnoma" asarining muallifiga amal qilinsa, boshni shamollatish natijasida kasallik botindan yuzaga chiqqan. Zotan, "Zafarnoma" asarining muallifi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha: "Anda yetkonda sha'bon oyining o'nida chahorshanba kuni (11.02.1405), lu oyida hazratning mijozi o'zga bo'lib, isitti. Va hazrat sohibqiron barcha gunohidin tavba qildi. Ammo zamon-zamon marazi ortar edi. Va Mavlono Fazlulloh Tabriziykim, aningdek tabibi hoziq olamda yo'q erdi va alal xidom mulozimatda erdi, muolajayu mudavog'a sa'yi qilur erdi. Ammo kundin kung'acha maraz ko'braq bo'lur erdi va har zamon har illati zohir bo'lur erdikim, bir-biriga muvofiq kelmas erdi... Ammo sohibqironning aqlu hushida nuqson yo'q erdi. Andoq marazda cherikning ahvalidin xabardor erdi"⁷².

⁷⁰ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-46.

⁷¹ Хильда Хукхем. Етти иклим султони. Б.-301.

⁷² Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Б.-296.

Kasallikning sababi, ehtimol, keksayib qolgan sarkarda qirchillama qishda oshig'ich yo'l bosib, o'pkasini sovuqqa oldirib qo'ygan va o'zini holsiz sezib, dardga davo berish maqsadida ichgan, ichkilik esa uni tuzatish o'rniga, aksincha, falokatini yaqinlashtirgandir. Muarrixlar har qalay bir masalada, Amir Temur hech qachon ichkilikka ruju qilmagani xususida yakdil.

Metin irodali bu inson bir necha kun davomida og'ir dardga qarshi kurashdi; u qattiq alahsirar, ba'zan fikri ravshan tortib qolardi. Ana shunday paytlarda u lashkarlarning hol-ahvolini so'rar, Qur'oni Karim oyatlarini tilovat qilardi.

Lekin bu safar buyuk jahongirning omadi kelmadi. Xitoyga yurish yarim yilga bormasdan to'xtatildi.

Hazrat Sohibqiron 15-fevral kuni katta xotinlari, shahzodalar, naqib, qozi va katta amirlari: Berdibek, Sor Bug'o, Shayx Nuriddin, Shohmalik va Xoja Yusufni huzuriga chaqirtirib, o'zining so'nggi hukmini e'lon qildi:

“Ulug' farzandimiz Pirmuhammad Jahongirni valiahd (toj-taxt vorisi) etib tayinladik. Samarqand taxtini unga topshirdik. Endi barchangiz ul humoyun tole'lik shahzodaga tobe' va mute' erursizlar. Unga tobe'lik va itoatkorlik halqasini bo'yinlaringizga osib, xizmatkorlik kamarini belga mahkam qilib bog'lashingiz zarur. Hamma vaqt, hamma yerda u bilan bir jonu bir tan bo'lingizlar”⁷³.

Shu gaplarni aytdi-yu, so'ng u bir necha daqiqa o'zidan ketdi. So'ng yana o'ziga keldi va boshqa amirlar va vazirlarni ham chaqirtirdi, boshda aytilgan gaplarini ham yana bir karra takrorladi, so'ng buyurdi:

“Mening vasiyatlarimga sodiqmiz”, deb qasam ichinglar!”.

Shundan keyin, amir Shayx Nuriddin bilan Shohmalik hazrat Sohibqironning atrofiga yig'ilganlarning hammasini tiz cho'ktirib, “Amirzoda Pirmuhammadga sodiqmiz”, deb qasamyod qildirdi⁷⁴.

Sohibqiron barcha amirlarga va arkoni davlatga qo'shinlar boshliqlariga yetib kelish hamda u o'lgach, tantanali qasamyod qilish, uning hamma buyruqlarini bajarishni amr qildi. U yetib kelish imkoniyatiga ega bo'lmagan barcha amirlar va boshliqlarga buyruq yuborib, ularning xuddi shunday qasamyod qilishlarini amr etdi.

⁷³Амир Темур васиятлари, маслахатлари, танбехлари. Б.-9.

⁷⁴Ўша жойда.

Uning huzuriga nabirasi Mirzo Xalil Sultonni va boshqalarni chaqirish uchun ijozat so'ralganida, u o'zining hayoti juda oz qolganini aytib, bunga salbiy javob berdi. O'zining suyuqli o'g'li Shohruh mirzoni bir ko'rib qolmaganiga afsuslandi. Shundan keyin tez holdan toydi. Amir Temur ko'zlarini yana yumib oldi⁷⁵.

16-fevral kuni ertalab Amir Temur tamom tildan qoldi. Nonushtadan keyin xonaga saroy imomi taklif qilindi. Fotiha va Qur'on tilovatidan keyin hamma imomga ergashib, hazrat Sohibqironni uzundan-uzoq duo qildi. O'sha kuni choshgohdan yarim kechagacha hazrat Sohibqiron behush yotdi. Lekin, ertasi kuni sahar payti u yana bir oz o'ziga keldi, ko'zlari yorishib, lablari qimirlab qoldi va nimalarnidir shivirlab ketdi.

Har bir boshlanishning nihoyasi va har bir quyosh chiqishining botish (vaqti Alloh tomonidan) oldindan belgilangani uchun (hazrat Sohibqironning) muborak mijozi tiriklikning katta yo'lidan va mo'tadillik chegarasidan chetga chiqib boshladi: humoyun holati salomatlik bezagi va yengillashish chiroyidan ajraldi va keraksiz bo'lib qoldi; ruh va rohatning porlab turgan tongi azob va malollikning zulmat ottiruvchi shomga aylandi⁷⁶.

Shundan keyin, Amir Temur yana o'zidan ketdi va "chahorshanba kuni, sha'bon oyining o'n yettisida, torix sakkiz yuz yettida (18.02.1405) voqi' bo'ldi"⁷⁷.

O'lim qo'li unga ajal sharobini so'nggi tomchisigicha ichish uchun tutdi. Bu voqea 1405 maymun yili 18 fevralga o'tar kechasi Sirdaryo yaqinidagi O'tror tekisliklarida yuz bergandi⁷⁸.

2.Temur vafotidan keyin toj-taxt uchun kurash

Amir Temur Sohibqiron (hijriy 807) 1405-yil 18-fevralda O'trorda vafot etdi. Saroy a'yonlari mamlakat osoyishtaligini o'ylab, Temur vafotini sulola

⁷⁵ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-46.

⁷⁶ Низомиддин Шомий. Зафарнома. Б.-399.

⁷⁷ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.:Шарқ-1997. Б.-297.

⁷⁸ Хильда Хукхем. Етти иклим султони. Б.-303.

a'zolaridan sir tutishga va jasadni tezlik bilan poytaxtga - Samarqandga olib borib, dafn marosimini o'sha yerda o'tkazishga shoshildilar. Shu sabab uzoq-yaqindagi viloyatlarni boshqarib turgan shahzodalarga nomalar bitilib, elchilar orqali payg'omlar yuborildi⁷⁹.

Sohibqironning voqe'asini yashurdilar va og'olarni yig'lamoq va zoridin man' qildilarkim, dushmanlar boshqa xabar topmagaylar⁸⁰.

Sohibqiron vafotidan keyingi dastlabki voqealar bayonini Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sidan quyidagicha o'qiymiz:"Subhda Hindushoh Xazonachi sohibqironni g'usl berib, Mavlono Qutbuddin (vasiyatida aytqonlarining) ta'limi va (sunna vojibotlari va tilovati Qur'on) birla mashg'ul bo'ldi. Va andin so'ng beklari, misli Berdibek, Sari Bug'a va Shayx Nuriddin va Shoh Malik va Xoja Yusuf va o'ziga xossa kishilar ittifoq qilib, ahd qildilar va ont ichtilarkim, bir-biri bilan muttafiq bo'lg'aylar va sohibqiron vasiyati bilan amal qilg'aylar va g'azog'a mutavajjih bo'lg'aylar"⁸¹.

Bu voqealar tafsiloti Ibn Arabshohning asarida esa quyidagicha aks etgan:"Temur vafot etib, tangri olamdan uning g'amini yo'q qilganda, u bilan askarlari ichida yaqinlari va bolalaridan Amiranshoh o'g'li, Temurning nabirasi Xalil Sulton va hamshirasining o'g'li Sulton Husayndan o'zga hech kim yo'q edi... Natijada askarlar (ham) sarosimaga tushib, seskandilar va Temur jasadini ortib, Samarqandga qarab qaytdilar. Xalil Sultonga baxt kulib boqib, borliq unga xoli bo'lgach, u taxtga egalik qildi. Uning otasi Amiranshoh Ozarbayjon va unga qarashli yerlarning mutavalliysi bo'lib, o'g'illari-Umar va Abu Bakr u bilan birga birga edi... Shohruh Hirot va Xurosonda yerlarida bo'lib, Pir Umar ea Fors viloyatlari va o'sha mamlakatlarda edi... Pirmuhammad (esa) Qandahorda bo'lib, u (Qandahor) Xuroson va Hind hududining o'rtasidadir"⁸².

Tarixchi va manbashunos olim, marhum Bo'riboy Ahmedov yozadi: "Berdibek, Shohmalik va Shayx Nuriddin ertasi (1405 yil 19 fevral) kuni nahorlikdan keyin Temurning xotinlari, Ulug'bek, Ibrohim Sulton va Muhammad Jahongir bilan yashirin kengash o'tkazdilar. Hozircha yuz bergan fojiani oshkor

⁷⁹ Хамидова. М. Амир Темур вафотидан сўнг. //Миллий тикланиш. -1997. 18-февраль. Б. 1-2.

⁸⁰ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Т.:Шарқ-1997. Б. 297-298.

⁸¹ Ўша жойда.

⁸² Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б. 6-7.

qilmaslik, marhumning tobutini barcha malikalar, Ulug'bek hamda kichik yoshdagi boshqa shahzodalar bilan birga amir Xoja Yusuf mutasaddiyligida, Ali Darvish shig'ovul boshchiligidagi qo'riqchilar himoyasida maxfiy suratda Samarqandga jo'natish, Ibrohim Sulton va Xalil Sulton boshchiligidagi Xitoy ustiga yurishni boshlab yuborish, toju taxt masalasini yurishdan keyin Samarqandda qurultoy chaqirib hal qilishga qaror qilindi".

Beklar/ og'olar qoshida kelib kengashtilar. Amirzoda Xalil Sulton va amirzoda Sulton Husayng'a kishi yibardilarkim, "Hazrat sohibqironning marazi ko'b bo'lub turur. Sizlar bir necha xossa kishilaringiz bila jahd etib tez kelinglar". Va Xizr Qavchinni alar sori yibardilar. Amirzoda Pir Muhammadga xatlar bitib dedilarkim, "Hazrat seni valiyahd qilib turur. Va sohibqironning ishi o'zga bo'ldi. Jahd qilib, Samarqandga tez kelgil". Va sohibqiron qilg'on vasiyat so'zlarini ham bitib yibardilarkim, podshoh bo'lg'ondin so'ng el bila nechuk maosh qilg'ay va adlu dod bila maosh qilg'ay. Va andoq qilmag'aykim, dushmanlari shodmon bo'lg'ay. Va Shayx Temur Qavchinni shahzoda Shohruhqa Hirot sori chobturidilar. Va Ali Darveshkim, mashhur ba Sagicha erdi, Tabrizg'a amirzoda Umarg'a yibardilar va Aro Temurni Bag'dodga amirzoda Mironshoh va Amirzoda Abo Bakrg'a yibardilar. Va yana birovni Iroq va Fors sori yibardilar⁸³.

Muallifning guvohlik berishicha, o'sha kengashda og'olar va shahzodalar kengashib, valiahd shahzoda Pirmuhammadni ulardan olisdaligi va Sohibqironga nabira ekanini, shuningdek Shohruhning yaqindaligi va Temurga o'g'illigini hisobga olib, mamlakatni unga topshirish kerak, degan qarorga keladilar.

1405 yil 19 fevral tunida Sohibqironning jasadi Saroymulixonim, To'kalxonim, Tuman og'o, nabirasi Ulug'bek va boshqa atoqli kishilar kuzatuvida Samarqandga yuboriladigan bo'ldi. Ular Xoja Yusuf va Yusuf Qavchin boshchiligidagi yo'lga chiqdilar. Shundan keyin Sohibqiron vasiyat qilayotganda unga jonlari chiqqunga qadar sodiqligini va nima degan bo'lsa, barchasini o'g'ishmay amalga oshirishlarini izhor qilgan amirlar-Shoh Malik va Shayx Nuriddin kengash o'tkazib, Sohibqiron rejalashtirgan harbiy yurishni davom ettirirish haqida qaror qabul qildilar. Ayni paytda ular Sohibqironning vafoti va

⁸³ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Б.-298.

vasiyatini saltanatning turli joylarida hukmdorlik qilayotgan o'g'illari Mironshoh va Shohruhga, nabiralari Xalil Sulton, Pirmuhammad, Umar va boshqalarga xat orqali ma'lum qildilar. Shohmalik va Shayx Nuriddin harbiy yurishni davom ettirishga harakat qildilar, lekin Sohibqironning o'g'illari va nabiralaridan hech qanday madad ololmadilar. Aksincha, ularning har biri Sohibqironning Pirmuhammadni hukmdor etib tayinlaganligi haqidagi vasiyatni tan olmay, taxtni egallashga harakat qildi⁸⁴.

Amir Temurning jasadi Samarqandga jo'natilgach, bir kundan so'ng malikalarga ham Samarqandga qaytishga ruxsat beriladi. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, "Kengashdin so'ng sohibqironnig na'shini Qaro Yusuf va Ali Qavchin va necha xossa kishilar Samarqand sori olib bordilar va dedilarkim, "Tez yurug'aysiz va yo'lda xabardor bo'lg'aysiz". "Alar na'shni olib, tez yurub, dushanba kechasi, sha'bon oyining yigirma ikkisida (23.02.1405) Samarqandqa kiyurdilar. /Va o'shul kecha shar' yo'suni bila gunbazg'a kiyurib, tufroqqa tobshurdilar"⁸⁵.

Sharafiddin Ali Yazdiyninng yozishicha, Amir Temurning jasadi 22 Sha'bon (23 fevralda) Samarqandga yetkazib kelinadi va va o'sha kechasiyoq marhum Muhammad Sulton Mirzo xonaqohida dafn etiladi.

Temur o'zining xudojo'y piri Mirsaid Baraka bilan yonma-yon qabrga qo'yilish istagini bir necha bor zohir etgandi. Oradan to'rt yil o'tgach, hijriy 812 yilning muharram oyi (1409 yil may)da Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzo Samarqand taxtni egallaganidan so'ng, maqbaradagi shariat qonun-qoidalariga zid keladigan Temurning kiyimlari, qurol-aslahalari va barcha qimmatbaho bezaklarini xazinaga qaytaradi. Temur va Muhammad Sulton Mirzo jasadlarini madrasa xonaqohidan ko'chirib, po'lat tobut o'rniga yog'och tobut soldirib, hozirgi Go'ri Amir maqbarasiga dafn ettiradi.

Dastlabki paytlari uning qabriga tug' va oq bayroq ilib qo'yilgandi. Keyinroq esa nabirasi Ulug'bek qabrni go'zal nefrit toshi bilan qoplatadi. Arab imlosining bilag'oni bo'lgan toshtarosh avlodlarga esdalik sifatida unga:" bu

⁸⁴ Зисеев Хамид. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. Б.-92.

⁸⁵ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Б.-299.

buyuk sulton, iltifotli xoqon Amir Temur Ko'ragonning... qabridir", deb yozgandi⁸⁶.

Lekin, Sohibqironning vasiyatiga amal qilinmadi, har kim o'z bilganicha ish tutdi, amirlarning ichgan qasamlari qasamligicha qoldi. Birinchi bo'lib qasamdan Temurning yaqinlari kechishdi. Shayx Nuriddin bilan Shoh Malik ham, Temurning bevalari ham vasiyatga xilof ravishda hokimiyatni Shohruhga topshirish payiga tushdilar. Shuning uchun ular Temurning o'limini Xalil Sultondan ham, Sulton Husayndan ham sir tutdilar. Toshkent va Sayramga borgan choparlar shahzodalarga gapning rostini aytishmadi. Faqat Sohibqironning og'ir betob bo'lib qolganini xabar qildilar, xolos. Hirotga yuborilgan Shayx Temur Qavchin esa bo'lgan gapni ochiq-oshkor aytdi. Shundan keyin Shohruh ramazon oyining boshida (1405 yilning 1 martida) o'z nomiga xutba o'qittirib, pul zarb ettirdi.

Biroq Amir Temurning o'limi qanchalik sir tutilmasin, ertasigayoq shum xabar uzoqlarga ham yashin tezligida tarqaldi⁸⁷. Sovuq xabar tez orada Sabron bilan Toshkentga ham yetib bordi. Qo'shin orasida parokandalik vujudga keldi.

Toshkent va Sayramda qishlovda turgan qo'shinning boshlig'i Xalil Sulton Mirzo bobosining vafoti haqidagi xabarni eshitgach, fursatni qo'ldan bermadi. U omadi kelganini angladi: Amir Temurning o'limidan, tayinlangan vorisning yo'qligidan, amirlar tomonidan vasiyatnoma amalga kirishining to'xtatib qo'yilganidan, Sulton Husayn tayyorlagan fitnadan hamda qo'shin orasida boshlanayotgan tushkunlikdan birinchilardan bo'lib xabar topgan Xalil Sulton vasiyatga qarshi borib, Samarqand taxtiga o'z nomzodini ko'rsatdi. Modomiki taqdir Pirmuhammadni o'zi zarur bo'lgan joydan uzoqqa yo'llab, taxtga o'tirishiga to'sqinlik qilayotgan ekan, u qonuniy vorislik huquqiga ega ekanligini hamda bu ishni paysalga solmay tezroq hal qilish lozimligini hammaga ma'lum qildi⁸⁸. Hammadan avval Samarqand shahri hokimi Arg'unshoh bilan aloqa o'rnatdi. Uning Samarqandga yuborgan vakili Arg'unshoh bilan gapni bir joyga qo'yib qaytdi. Amir Arg'unshoh Sohibqironning jasadi solingan taxtiravondan boshqa

⁸⁶ Мустафоев. М. Жахонгирнинг сунгги кунлари. Бухоро ҳақиқати.-1995. 24-май.

⁸⁷ Турғун Файзиёв. Темурийлар шажараси. Б.-50.

⁸⁸ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-175.

biror bir zotni shaharga kiritmaslik va poytaxtni Xalil Sulton yetib kelguncha ehtiyot qilib turishga so'z berdi.

Turkiston va Sabronda qishlayotgan qo'shinlar qo'mondoni Sulton Husayn Mirzo o'z qo'l ostidagi qo'shinni tashlab, ming chog'li sara yigitini olib zudlik bilan taxtni egallash maqsadida Samarqandga qarab ot surdi. Buni Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagicha ifodalaydi: "Yana bu mahaldakim, bu xabarni eshitti, yamon andishalar ko'ngliga tushub, ba'zi beklarikim, so'l qo'lnung beklari erdilar, alarg'a ijozat berib, otlarini oldi. Ikki ming kishi bila, barcha qo'sh ot, Xo'jand suyidin o'tub, Qaroq yo'lidin Samarqand sori mutavajjih bo'ldikim, makru hiyla bila Samarqandning buzruglarini bozi berib, ani shaharga kiyurgaylar"⁸⁹.

Hali Sohibqironning jasadi sovumasdanoq temuriy shahzodalar, boshliqlar va arkoni davlat orasida parokandalik boshlanib ketdi. Sohibqironning vasiyatiga sodiq qolishga qasamyod qilgan shahzodalar tez kunda vasiyatdan yuz o'girib, taxt uchun kurashga tushib ketdilar, harbiy va ma'muriy boshliqlar esa guruhbozliklarni avj oldirdilar. Mavrusiy saltanatni boshqarishda temuriy shahzodalar, sahroyi chingiziy shahzodalaridek hamjihatlik bilan birlasha olmadilar. Aksincha, o'zaro qonli nizolarni boshlab, mamlakatni janggohga aylantirdilar va mehnatkash xalqni og'ir musibatlarga duchor qilib, mamlakatning parchlanib ketishiga sababchi bo'ldilar⁹⁰.

Temur vorislik maydonida o'zidan ilgari hukmronlik qilgan mo'g'ullar singari baxtli bo'la olmadi. Mo'g'ul hukmdori katta bir mamlakatning asosini tuzdi, o'g'illari va vorislari vositasida uni kuchaytirdi hamda kengaytirdi. Temur esa hokimiyatning binosini baland ko'tardi; ammo uning farzandlari kuchli suyanchiq bo'lish o'rniga, noahillik va o'zaro urushlar qilib, bu imoratning nurashiga va qulashiga olib keldilar. Chingiziylar O'rta va G'arbiy Osiyoda ikki asrga yaqin hukm surdi. Temurning vorislari esa, garchi ular orasida hokimiyat ishlaridagi mahorati, porloq iste'dodi va olijanoblighi bilan kelajak nasllarni uzoq davr hayratga soladigan zotlar bo'lsa-da, saltanatni atigi bir asrga yaqin boshqarib turdilar, xolos⁹¹.

⁸⁹ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Б.-301.

⁹⁰ Турғун Файзиев. Темурийлар шажараси. Б.-50.

⁹¹ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б. 57-58.

Amir Temurning jasadi Samarqandga jo'natilgach, bir kundan so'ng malikalarga ham Samarqandga qaytishga ruxsat beriladi. Malikalar Samarqandga yetib kelganlarida Amir Temurning o'limi haqidagi xabar hammayoqqa tarqalib bo'lgan edi.

Samarqand shahri hokimi Arg'unshoh shahar darbozalarini berkitib, to haqiqiy valiahd kelib, taxt masalasi hal bo'lmaguncha shaharga hech kimni kiritmasligini e'lon qiladi. Faqat davomli muzokaralar so'ngida Saroymulixonim boshchiligidagi ayrim malikalar va yosh shahzodalargagina shaharga kirishga ijozat beriladi. Malikalar, shahzodalar va shahar a'yonlarining xotinlari Muhammad Sulton Mirzo xonaqohiga borib, ta'ziya marosimini boshlaydilar. Ular ko'k kiyinib, sochlarini yoyib, yuzlarini tirnab qonatib, qorakuya surtib, dod-faryodlar qilib, aza ochadilar. Bu marosimda shahzodalar, shahar ichida bo'lgan a'yonlar, hatto shayxulislom Abdul Avval va Isomiddinlar ham faol ishtirok etadilar. Shahardagi barcha barcha rastalar va do'konlar yopiladi⁹².

Bu reja har tomonlama to'la amalga oshrildi. Sulton Husayn shaharning darvozalari yopiq va tirqishlaridan kamonchilar ko'rinib turgan devorlariga yaqinlashishga jur'at etolmadi.

Ko'p o'tmay Xitoyga yurishni davom ettirish rejasi ham chippakka chiqdi. Temur vafotidan bir hafta o'tagandan keyin, 1405 yil 24 fevralda choshgohda Ibrohim Sulton bilan amirlar o'tlanishib, qo'shin bilan O'trordan chiqdilar, lekin hammasi bo'lib bir tosh yo'l bosdilar, xolos. Ular Azuj arig'igacha borib, Quldurma ko'prigi oldida chodir tikdilar. Lashkar orasida buzilish yuz bermasligi uchun Amir Temurning tug'i Ibrohim Sulton chodiri qubbasiga tikib qo'yildi. 19 fevral kuni Toshkent bilan Sabronga yuborilgan choparlardan har uchala qo'shin-Ibrohim Sulton, Xalil Sulton hamda Sulton Husayn boshliq qo'shinlar Cho'qlik mavzeida qo'shilishi va u yog'iga yurishni birgalikda davom ettirishlari aytib yuborilgan edi. Baxtga qarshi choparlar noxush xabar olib keldilar: Sulton Husayn allaqachon qo'shinni tashlab, Samarqandga o'tlanibdi va hammadan ilgari tojuxtaxtni qo'lga kiritish payiga tushibdi. Marhum Umarshayx Mirzoning o'g'li Amirzoda Ahmad bilan Xudoydod Husayniy, amirlardan Yodgorshoh orlot,

⁹² Турғун Файзиев. Темурийлар шажараси. Б. 50-51.

Shamsiddin Abbos, Burundiq barlos va boshqalar ham til biriktirib, Xalil Sultonni podsho ko'taribdilar. Bu xabar Ibrohim Sulton yonidagi amirlarni dovdiratib qo'ydi. Oxiri ular ham Ibrohim Sulton hamrohligida orqaga qaytishga qaror qildilar va shitob bilan Samarqandga qarab yuzlandilar.

Amir Shohmalik yo'li ustidagi Shayxzoda kapusidan o'tib, Amir Arg'unshoh va Temur tobutini keltirgan Yusufxo'ja turgan Chorraha eshigi oldiga kelganida, qal'a darvozasi unga berkitilganini ko'rdi. Amir Arg'unshoh uni ichkariga qo'ymay: "Valiahd Pirmuhammadxon xususida butun shahzoda va beklar to'planib, hamma uni bir hukmdor o'laroq tan olganidan keyingina eshiklarni ochaman",-dedi. Shohmalik unga ko'p o'gitlar bersa-da, natija chiqmadi va u ortiga qaytdi. Barchalari bu holdan o'kinishib, Buxoroga ketishga qaror berildi. Ammo yana bir oz sabr qilish, Shayx Nuriddin ham bir Samarqandga bosh urib, u yerdagi beklar bilan kelishishga urinib ko'rishi ma'qul topildi. Shayx Nuriddin 1405 yil 3 mart seshanba kuni Chorraha eshigiga bordi, u yerdan turib beklar bilan suhbatlashdi, beklar avvalgi fikrlarini takrorlash bilan kifoyalanib, uni shaharga kiritmadilar va amir ortiga qaytdi⁹³.

Ustiga ustak, shu chog'da ayrim beklarning fursatni g'animat bilib, biror muhlat oldin bo'lsa-da, harakat boshlab, Samarqand taxtini egallash lozim, degan fikrlarini ma'qul ko'rgan Xalil Sulton ularni to'plab, boshkentga qarab yurdi.

Buning xabari Amir Shayx Nuriddin va Shoh Malikka yetib kelgach, ular endi Xalil Sultonning ahdnomani buzganini, shuning uchun ham Samarqandga yurganini anglab, amirzoda Pirmuhammad yoniga Ulug'bek va Ibrohim Sultonni olib tezda Buxoroga yetib boorish kerak, xonimlarning esa Samarqandga ketishlari to'g'ridir, dedilar.

Markaz o'rdu beklari ixtiyorlaridagi beklar bilan aqcha, javohir, qimmatbaho kiyimliklar, qurollardan iborat Temur xazinasini olib, 6 mart juma kuni Buxoroga yo'naldilar. Ular yo'lda ekan, shahar himoyachisi ularga bir maktub yo'llab, kapularni ochmagani dushmanlikdan emas, balki Temurning vasiyatiga sodiqligidan ekanini, agar Xalil Sulton keladigan bo'lsa ham shunday qilishini va valiahd Pirmuhammad kelguniga qadar shunday qilinishini ta'kidlab, bu ahdda

⁹³ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Б.-40.

sobit turishini ma'lum qilgan edi. Markaz o'rdu beklari bu so'zlarga ishonib, bu shaharni himoya qilib turilishi lozimligini ta'kidlab, javob maktubi jo'natdilar va yo'lda davom etdilar. Biroq bir necha kundan so'ng boshkentning Xalil Sultonga taslim etilganini-topshirilganini eshitdilar.

Buxoroga qarab yo'l olgan Ulug'bek va Ibrohim Sultonga hamrohlik qilib kelayotgan Sohibqironning ikki safdoshi-Amir Shohmalik va Shayx Nuriddinlar ramazon oyining o'ninchi kuni Buxoro viloyati yaqiniga yetdilar. Rustam barlos (uni o'zlaridan ilgariroq Buxoroga yuborgan edilar) qardoshi Hamza (Buxoroning hokimi va farmonbardori edi) bilan ular istiqboliga chiqib, shaharning tashqarisida kutib oldilar. Amir Shoh Malik, amir Shayx Nuriddin, Rustam barlos va Hamzalar yangi boshidan ahdlashib oldilar⁹⁴.

Xalil Sultonning ushbu harakatlari "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari muallifi Ibn Arabshoh nazdida quyidagicha tasvirlangan:"...Ushbu avomlar (Temur avlodlari) dan birortasi ham tayyorgarlik forishida safar harakatiga kerilib (otlanib), qo'lini hamlaga ko'tarish va oyog'ini yurishga cho'zish u yoqda tursin, to'shakdan boshini chiqarish yoki tishini ko'rsatib kulib, yeng ichidagi barmoqlarini uchini zohir qilishga ham qodir bo'lmadi. Natijada hech bir nizosiz va totishuvlarsiz Xalil Sulton mana shu oson o'ljaga egalik qildi va mulkni, balki (butun) olamni jahannamdan Kavsari Salsabiya⁹⁵ badal qildi"⁹⁶.

Bu paytda qonuniy taxt vorisi Pirmuhammad sodir bo'layotgan voqealardan batafsil xabardor bo'lmay, g'aflatda edi. Yoshligini jang maydonlarida o'tkazgan Pirmuhammadxon keyingi paytlarda aysh-ishratga berilib, hukumatni boshqarish ishini ochko'z va hiylagar vaziri Pirali Tozga topshirib qo'ygan edi. Pirmuhammadxon bobokaloni Temurning vafoti haqidagi xabarni ishrat bazmida oldi. Bu paytda Samarqandda, saroy doirasida parokandalik va qarorsizlik hukm surar edi. Agar Pirmuhammadxon sharob kosalarini qo'yib, qo'lga urush qurolini olib, darhol askar to'plab Samarqand ustiga kelganda, buvasining taxtiga ega bo'lur erdi. Lekin u kechikdi. Mironshohning Toshkentda yashayotgan 12 yashar o'g'li Xalil Sulton mirzo harakat boshladi. U bu yerdagi bir necha obro'li

⁹⁴ Хамидова. М. Амир Темур вафотидан сўнг. //Миллий тикланиш. -1997. 18-февраль. Б.-2.

⁹⁵ Jannatdagi bir daryo havzasining nomi, salsabil jannat bulog'ining nomi. Ибн Арабшох. Ажойиб ал-макдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-157.

⁹⁶ Ўша асар. Б.-7.

zobitlarning quvvatlashi bilan buyuk bobosining taxtiga da'vogarlik qilib, to'siqchiliksiz Samarqand ustiga yurdi⁹⁷.

Keyin Xalil Sulton Samarqandga ravona bo'ldi. Uni shahar ulug'lari qarshi olib, istiqboliga shahar noibi va zaimlari chiqdilar. Shaharlar noiblari qora kiyimga burkanib, motam liboslarini kiyib, uning huzuriga tashrif buyurdi. Ushbu jasadga ta'zim (qilish) uchun hamda Xalil Sultonning sog'-salomat qaytgani va podshohlik taxtini olgani bilan muborakbod etish uchun akobirlar va ulug'lar keldilar⁹⁸.

Toshkentdan yo'lga chiqqan Xalil Sultonni Samarqanddan to'rt farsax beridagi Temur qurdirgan Sheroz qishlog'ida amir Arg'unshoh va Yusufxo'ja kutib olishdi va unga shahar-u qal'aning, xazinaning kalitini berishdi. U 1405 yilning 16 martida, chorshanba kuni shaharga kirib, Temurning vasiyatini bajarmoq uchun Muhammad Jahongirni xon ko'tardilar va Xalil Sulton bilan uning nomidan aqcha chiqardilar. Barcha farmonlar uning otidan chiqarilsa-da, aslida hokimiyatni Xalil Sulton idora etmoqda edi. Ammo ne bo'lsa bo'lsin, tarixda Temurning yonida doimo "xon" deb e'lon qilingan birisi bo'lganini eslasak, Muhammad Jahongirning xon deb ko'tarilishi ham muhim hodisa edi. Lekin Xalil Sulton taxtdan ketishi bilanoq Muhammad Jahongirning xonligi ham tugardi. Shohruh zamonida Movarounnahr va Xurosonda Chingizxon naslidan xon ko'tarish an'anasi tugadi⁹⁹.

1405 yil 18 martda Xalil kam sonli qo'shini bilan shahar darvozalari oldida paydo bo'ldi: bir qator amirlar uning safini tark etgan edi; ularning ayrimlari Sohibqironning so'nggi irodasiga xiyonat qilganlari uchun afsuslangan bo'salar, ayrimlarining (ular ko'pchilikni tashkil etar edi) bu yigitning saltanat shohsupalari tomon shiddat bilan odimlashi uzoqqa bormasligiga ishonchlari komil edi.

Bir necha kundan so'ng Xalil taxtga o'tirdi, uni o'z tarafdorlari va Samarqand buzuqilari qizg'in olqishladilar. U taxtda o'tirib amirlar, yuqori martabali amaldorlar va temuriylar oilasi ayrim a'zolarining o'ziga sodiqligi haqida qasamyodlarini qabul qildi va shundan so'ng solnomalarda yozilishicha, "butun Osiyoning xazinalari jamlangan" qal'aning chuqur yerto'lalarini aylanib

⁹⁷ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-58.

⁹⁸ Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-11.

⁹⁹ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Б.-42.

chiqdi... Boyliklardan boshi osmonga yetdi va qarshisida barcha xohishlarini amalga oshrish manbalari va kuch-qudratining garovlarini ko'rgandek bo'ldi¹⁰⁰.

Samarqand taxtini egallagan Xalil Sulton o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qiladi. Pirmuhammadning yo'lini to'sib, uning rejalarini buzib yuborish niyatida hatto u Amudaryoning o'ng tomonidagi yerlarni ham o'z tasarrufiga oladi.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, nodir boyliklar, Sohibqiron niyat qilganidek, taxt vorisi Pirmuhammad emas, balki xayolda yo'q Xalil Sulton tomonidan osonlik bilan egallandi¹⁰¹.

Taxtni g'ayriqonuniy bosib olgan hukmdor xazinani mamlakat va xalq manfaati uchun emas, balki o'z hokimiyatini mustahkamlash va huzur-halovatini ta'minlashga sarfladi. Chunonchi, u lashkarboshilar, mansabdorlar, din peshvolari, va boshqa atoqli kimsalarni o'z tarafiga jalb qilish maqsadida oltin, kumush va javohirlarni bug'doy tortadigan tarozi bilan ulashdi. Uning bunday qilmaslikdan o'zga iloji ham yo'q edi. Chunki Shohruh, Pirmuhammad va boshqa shahzodalar taxtdan voz kechishmagan, beklar va lashkarboshilar orasida Sohibqiron vasiyatiga sodiq kishilar ko'p edi.

Xalil Sulton bobosi Sohibqironga "sodiqligi"ni namoyish qilish va mavqeini mustahkamlash uchun uning jasadini Muhammad Sulton madrasasidan olib, hozirgi gumbazli maqbaraga qo'yish bilan shug'ullandi. Bu tadbir qanday amalga oshirilganligini Ibn Arabshoh quyidagicha ta'riflagan: Jasadni "tobutga solib, boshliqlar boshlarida ko'tardilar. Uning janozasi marosimida Podshohlaru qo'shinlar boshyalang, qora kiyim kiygan holda bordilar, ular bilan birga amirlar va a'yonlar toifalari ham ham bor edilar. Temurni nabirasi Muhammad Sultonning yoniga, nabirasi madrasasiga, Ruhobod deb ataladign joy yaqiniga qo'yidilar... Xalil Sulton uning (jasadi) ustida aza shartlarini: xatmi Qur'on, rub'a poralari, duo o'qitish, sadaqalar tarqatish, taomlar va shirinliklar ulashishni bajo keltirdi. (Keyin) u qabrni sag'ana qilib ishlatib, (Temur) ishini nihoyasiga yetkazdi¹⁰².

¹⁰⁰ Люсьен Керен. Амир Тему́р салтанати. Б. 176-177.

¹⁰¹ Зиев Хамид. Буюк Амир Тему́р салтанати ва унинг тақдири. Б.-95.

¹⁰² Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Тайму́р. II китоб. Б. 11-12.

Ulug'bek Mirzo tajribali amirlar bilan bamaslahat ish ko'rib, padari Shohruh Mirzo yetib kelgunga qadar muqim qolishni ma'qul ko'rdi. Otasini shoshiltirish maqsadida amir Shohmalikni Hirotga otlantirgan shahzoda Buxoro qal'asi devorlari, burjlari va darvozalarini mustahkamlashga kirishdi.

Ammo Xalil Sulton bu holdan xabar topgach, xufiyalarni ishga soldi, oxir-oqibat dorug'a Hamza barlos va uning birodari Rustam barlosni o'z tomoniga og'dirishga muvaffaq bo'ldi. Xiyonatkorlar zug'umi tufayli Ulug'bek Buxoroni tashlab chiqib, Hirotga, otasi huzuriga yo'l oldi. Shaharni shoshilinch tark etgani uchun haram, ug'ruq va xazina fitnachilar qo'liga tushdi.

Bu paytda otasi vafoti haqidagi xabarni eshitgan va Sohibqironning amirlari madadiga tayanishi mumkinlikdan xabardor Shohruh o'zini Xurosonning hukmdori deb e'lon qilgan va o'z nomi bilan pul zarb ettirgan edi. Bu haqda o'sha davr muarrixlaridan yana biri, 1405-1470 yillar temuriylar davri tarixi solnoma tarzida bayon qilingan "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi") asarining muallifi Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha hikoya qiladi: "Hazrat sohibqiron zamonidagi dastur bo'yicha Seiston va Mozandaronga qadar yastangan Xuroson yerlari Omuya suvigacha saodatli navvobning qudrat qo'lida qaror topdi va xutba va pul zarbi¹⁰³ humoyun nom va laqablar bilan zeb-ziynat kasb etdi, olam ahlining va'da-va'idlari vafoga yo'ldosh bo'lib, jahon ahlining umidi dil istagan tarzda ro'yobga chiqdi. Bu saodat nishonli taxtga chiqish voqeasi (807 yil) muborak ramazon oyida (3 mart-1 aprel, 1405) saltanat poytaxti Hirotida xushbaxtli va yaxshilik bilan voqe' bo'ldi..."¹⁰⁴.

Sohibqiron o'limi daragi tarqalgach, Xurosonda ham notinchlik paydo bo'lgan, goh Seistondan, goh Balxdan isyon xabari kelardi. Uning ustiga Shohruh Mirzoning hujumidan qo'rqqan Xalil Sulton qo'shini bilan Termizga kelib to'xtadi. Xullas, Samarqand yo'li hozircha berk edi.

Xuroson muhofazasi uchun Hirotida ayrim beklarni tayinlagan Shohruh Movarounnahr yo'liga tushdi. Shu orada Xalil Sultonning saltanat poytaxti

¹⁰³ Matnda: sikka; arabcha so'z; tilla va kumush tangalar yuziga so'qish uchun biror hukmdorning nomi bitilgan naqsh-tamg'a. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Масъул муҳаррирлар: Азиз Қаюмов, Муҳаммад Али. Т.: O'zbekiston. 2008. Б.-537.

¹⁰⁴ Ўша асар. Б.-47.

Samarqandni markaz qilib olib, arki oliyga kirganligi va olam xazinalarini o'z egaligi qo'liga kiritganligi (xabari) shavkatli quloqlarga yetishdi. Tangri yog'dusini ko'paytirgur nur sochuvchi fikr (Shohruh) hazrat sohibqironning sultonlik taxti qoidalariga biror futur yo'l topmasdan burun xoqon hazratlarining inoyat oftobi u mamlakat ustida porlamog'i kerak, degan (ma'nini) taqozo etdi: ulug' amirlar: amir Mizrob, amir Hasan So'fi tarxon, amir Aliko ko'kaltosh va amir Xoja Rostiylarni Xuroson yerlarini boshqarib turishga tayin qildi hamda quyoshdek yorqin bayroqlaru oy ko'rinishli tug'lar saltanat poytaxti Hirotdan Movarounnahr tomon yo'naldi¹⁰⁵. Andxuddan o'tib, Jayhun bo'yiga yetib, ko'prik qurishni boshlatarkan, daryoning u qirg'og'idan amir Shohmalik Shohruhni bo'lgan gaplardan voqif etdi. Shu orada Xalil Sultondan elchi keldi, u bergan maktubda Shohruhning el-ulusi Xuroson ekanligi, Movarounnahrda esa Xalil Sultondan kuchli boshqa birisi yo'qligi uchun bu o'lka uning izmida bo'lishi lozimligi, agarda bu fikr qabul etilsa, u har qanaqa munosabatga tayyor ekanligi bitilgan edi. Sulh tuzildi. Uning shartlariga ko'ra, Xuroson Shohruh Mirzo mulki, Movarounnahr esa Xalil Sulton mulki sanaladigan, shuningdek Xalil Sulton valiahdlik huquqi poymol etilgan Pirmuhammadning harami Xonikani sha'riy eri huzuriga-Balxga yuboradigan, Ulug'bekning Buxoroda qo'lga kiritgan xazinasini qaytaradigan bo'ldi.

Samarqandda o'z vaziyatini yaxshilab olgan Xalil Sulton o'n ming kishilik bir qo'shinni Shoh Malik qo'riqlab turgan Diza kechuvini egallash uchun jo'natdi. Samarqanddan kelganlar Shoh Malikdan ustun kelolmagach, orada tomonlar kelishuv ko'rishmalarini boshladlar. Shohruh yoniga borgan elchilar unga: "Amirzoda Shohruh bu mamlakat muhaqqiqi, qardoshi va yoki o'g'illaridan biriga berajagini, amirzoda Xalil ham ulardan biri ekaniga ko'ra, mamlakatni unga berib qo'ya qolishini"-taklif etdilar. Shohruh o'rtada nizo chiqmasligi uchun xonimlardan Xonika bilan Temurning xazinasini Pirmuhammadga, o'g'illari amirzoda Ulug'bek, Ibrohim Sulton va odamlarining xazinalarini esa o'ziga yuborilishini shartr qilib qo'yib, ularning taklifini quvvatlashini anglatdi.

¹⁰⁵ Ўша асар. Б.-48.

So'ngra: "Agar bu shartlar bajarilsa, suvning¹⁰⁶ u bir tarafini Xalil Sultonga beraman", -dedi. Shundan so'ng Shohruh Hirotidan olgan xabarga ko'ra, may oyida Andxuydan boshkentiga qaytdi¹⁰⁷.

Bu orada Xalil Sulton Xulokular mulkini boshqargan otasi Mironshoh bilan birodarlari Umar bilan Abu Bakrni yordamga chaqirdi. Ular ham Xuroson ustiga yurish boshlagani haqida xabarlar keldi. Shohruh besh ming kishilik qo'shinni ularga qarshi jo'natdi. Ularga Mironshohga atalgan bir maktub ham berilgandi. Xatda Temurning har kimga bir o'lkani bergani, berilgan o'lkani idora etish va qurish har kimning vazifasi ekani, har kim o'z yurti masalasi bilan shug'ullanishi va bu bilan kifoyalanishi kerakligi, Xalilning ham ana shundan kelib chiqib, Gurjiston va Armanistonga jo'nab, Movarounnahrni Pirmuhammadga topshrishi zarurligi aytilgandi. Beklar maktubni Mironshohga berdilar. Shohruhning tarafdori bo'lgan tarixchilarga ko'ra, u ham go'yo Shohruhning fikriga qo'shilgan. Shundan so'ng ota-bolalar yurishni to'xtatib, Ozarbayjonga qaytishga qaror qildilar. Hirot va Samarqand o'zaro yana sulh tuzdilar. Lekin munosabatlar o'sha-o'sha - yomonligicha qolaverdi.

Xalil Sulton garchi Temurdan qolgan xazinalar vositasida Sohibqironning nufuzli a'yon va kiborlaridan ma'lum qismini o'z tarafiga og'dirib, Movarounnahrning taxtini egallab olgan bo'lsa-da, ammo ko'p vaqt o'tmay, u Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga duch keladi. Birinchi bo'lib Turkiston hamda Farg'onaning hokimlari Shayx Nuriddin bilan amir Xudaydod Xalil Sultonga qarshi isyon ko'taradilar. Hatto uning o'z ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryoning chap sohili viloyatlarida o'z hokimiyatini o'rnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh ko'taradi¹⁰⁸. Bu haqda zamondosh tarixchilardan biri Ibn Arabshoh shunday yozadi: "Shunga qaramasdan, u qo'mondonlardan ba'zilari, vazirlar va qo'shinlar zaimlari o'zlari sir saqlagan (narsa) ni oshkora qilib, isyondan iborat fitnani zohir etdilar. Isyon qilichini yalang'ochlab, adovat yoyini o'qlagan va Rudayniy¹⁰⁹ muxolafatiga

¹⁰⁶ Амударё. Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Б.-43.

¹⁰⁷ Ўша жойда.

¹⁰⁸ Мухаммаджонов. Амир Темур ва темурийлар салтанати. Б.-64.

¹⁰⁹ Nayza tayyorlash bilan mashg'ul bo'lgan bahraynlik bir ayolning ismi. Unga nisbatan berilib shunday deyiladi. Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-158.

shuru' qilganlarning dastlabkisi Sayxun daryosi orqasi va Turkiston atrofidagi yerlar mutavallisi Xudoydod Husayniy edi. So'ngra isyon va inodda Xudoydodga Shayx Nuriddin ergashdi... So'ngra Shoh Malik o'z itoat nizomini tarqatib, muxoliflik yo'liga o'tib, boshdan-oyoq sho'ng'ib ketdi"¹¹⁰. Ba'zi manbalarga ko'ra, amir Shayx Nuriddin Shohruh Mirzoning topshirig'i bilan Samarqandga ketishi, Xalil Sulton xizmatiga kirishi va vaqti yetganda oyoqlanmasi buyurilgan edi. Shayx Nuriddin Samarqandga keldi, Xalil Sulton xizmatiga bosh urdi, Sulton esa, Xudoydod o'ziga qarshi isyon qilgach, uni bostirish uchun Shayx Nuriddinni yo'lladi. Nuriddin isyonchilarni bostirish o'rniga, o'zi Xudoydodga qo'shilib ketdi va katta yurish boshlab, Sayram, O'tror, Toshkent, Shohruhiya, Andijon kabi Sirdaryo yoqasidagi bir qator shaharlarni egallab, kurashni davom ettirdilar.

Shu sababli Xalil avvalo o'zi yuborgan askar bilan jang qildi, so'ngra Mirzo Sulton Husaynga qarshi askar yuborib, Kesh viloyatining Jiydalik degan joyidagi urushda g'alaba qozondi¹¹¹.

Amir Temur davlatining inqirozi sabablari haqida gap ketganda, tarixchilar Xalil Sultonning quyi tabaqadan bo'lgan xotini Shodmulkni shunday sabablardan biri sifatida e'tirof etadilar. Mamlakatning tanazzuli haqida fikr yuritarkan, Sharafiddin Ali Yazdiy o'z "Zafarnoma" sida yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagandek bo'ladi: "...Va aning davlatig'a zavoli bo'lg'onining sababi bu erdikim, Shod Mulk otliq amir Hoji Sayfuddinining tag'malaridan biri erdi, anga oshuq bo'lub, hazrat sohibqirondin yashura ani nikoh qilib olib erdi. Podshoh bo'lg'onda farog'at bila aning bila ayshu ishrat qilur erdi. Va aning sehridin aslo chiqmas erdi. Va, har nekim, ul maslahat ko'rsa erdi, o'shandoq qilur erdi va o'z ixtiyorini anga berdi. Va insof elikini ochib, andoq xazinani oz fursatda talaf qildi. Bu harakatidin barcha cherik va ra'iyat andin ko'ngul uzib, aning bila yamon bo'ldilar"¹¹².

Taxtga o'tirgach, Xalil o'zining bu ayolga bo'lgan munosabatini hammaga oshkor qildi va uni malika etib tayinladi. Ibn Arabshoh bu ayolning eriga bo'lgan ta'siri haqida quyidagicha yozadi: "Natijada, Xalil Sulton xotin tili bilan so'zlab, xotini esa Xalil Sulton tili bilan so'zlay boshladi. Natijada Shodmulkning ra'yisiz

¹¹⁰ Ўша манба. Б. 14-15.

¹¹¹ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-59.

¹¹² Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Б. 307-308.

Xalil Sultondan biror farmon sodir bo'lmay, podshohlik siyosati uning zakosi nurisiz yorug'lik ko'rmay qoldi. Shunday qilib, Xalil Sulton unga o'z jilovini topshirib, murodiga o'z murodini tobe' qildi. Bu (narsa) g'oyatda kam aqllilik va devonalikdir. Qanday qilib o'z (podshohlik) jilovini xotiniga tutqazgan podshohning omadi yurishsin?"¹¹³.

Shodmulk eriga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatdi. U eski xizmatkorlari bo'lgan tarbiyasiz va shubhali kishilarni saroyga olib kirdi. Ularga boylik va yuqori mansablarni ulashib berdi. Bu esa amirlarni qattiq ranjitdi. Xalil tufayli u ishyoqmas va tasqara bir xizmatkorini vazir lavozimiga qo'ydi; bu kishi noiblarni ishga tayinlab, ishdan olardi, saltanat mablag'larini o'z xohishiga ko'ra ishlatardi, mashvaratlarda uzundan-uzoq va qiynlib nutq so'zlardi. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, "bu holat amirlarning g'azabini qo'zg'ar, shallaqiga esa olam-olam quvonch keltirardi"¹¹⁴.

Ana shundan keyin ikki taxt da'vogarlari o'rtasida muzokara boshlandi. Ibn Arabshoh ushbu muzokaralar jarayonini ancha mufassal yoritadi. Unga ko'ra, Xalil Sulton taxt da'vogarligi masalasiga har ikkala tomon uchun ham xolisona javob bergan akobirlar fikriga qarshi chiqadi. Xalil Sultonning fikricha, "mulk ishi kishiga yo nasab yo'li bilan, yoinki uning uchun kurashib, kasb etish (yo'li) bilan bo'ladi"¹¹⁵. Shahzodaning ta'kidlashicha, u mulkning sohibi bo'lishda eng munosibi emish. Shunday qilib, Xalil Sultonga ko'ra, ikkala yo'l bilan ham Pirmuhammad taxt da'vosi uchun nohaq bo'lib chiqdi. Yana muallifga ko'ra, "Xoja Abdulavval - u ulamolar boshliqlarining boshlig'i, sayyidlar va ulug'lardan iborat Movarounnahr boshliqlari ustida tasarruf yurgizuvchi, jamiki amiru zaimlarga o'z hukmlari o'qini tegizuvchi (ulug' kishi) edi-o'z javobida yaxshi gapirib, to'g'ri va foydali so'zladi. U so'zni qisqa va muxtasar qildi. Pirmuhammadni qoralab, Xali sultonni g'olib hisobladi. U o'z javobi va xitobi jarayonida (shunday) dedi:" To'g'ri, sen Amir Temurning valiahdi va minba'd xalifasi eding. Lekin sening toleing baxtga to'g'ri kelmadi. Agar baxting kulib boqqanda edi, sen taxtga yaqin bo'larding. Shu tufayli sening (hozirgi) ahvolingda

¹¹³ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-52.

¹¹⁴ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б. 178-179.

¹¹⁵ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-28.

eng avlo narsa shuki, o'zingga tekkanu, o'zing egallagan (narsa) bilan qanoatlanib, (mavjud) ot va odamlaringni saqlab qolish va qo'lingda bo'lgan yerlarni tutib turishdir. Agar sen (bulardan) yuz o'girib, ziyoda mulk talabida bo'lsang, ziyoda mulk talabida bo'lsang va tangri o'zingga qismat qilib, hukm etgan narsa bilan qanoatlanmay o'z mamlakatingdan bu bo'shliqqa tomon chiqsang, u vaqtda sen azob-uqubatga tushasan va viloyating qo'lingdan chiqib, o'zing esa, "na u yoqligu na bu yoqlik bo'lib tentirab qolasan"¹¹⁶.

Lekin bu muzokaralardan hech qanday natija chiqmadi. Keyin Xalil Sulton amakisi (Jahongir) ning o'g'li Pirmuhammad-Temur uni birodari Muhammad Sulton vafotidan keyin o'ziga valiahd qilib tayinlagan edi, behisob askar bilan Qandahordan chiqib, Samarqandga qarab jo'nadi. U Xalil Sultonga va vaziru a'yonlardan iborat boshqa akobirlarga elchi yuborib, o'zining valiahd va bobosi Temurdan keyin xalifa ekanligini xabar qildi. Taxt uning haqi-ku, qanday qilib uni zo'rlik bilan olishadi? Podshohlik uning mulki-ku? Qanday qilib uni yulib olishadi?¹¹⁷

Andxuyda hech bir sababsiz Shohruhni tark etgan Sulton Husayn to'g'ri Xalil Sulton yoniga keldi va yaxshi qarshilandi. Xalil Sulton bungacha Temurning xazinasini Pirmuhammadga yuborish uchun so'z bergandi, ammo u buni unutib, xazinani o'ziniki qilib oldi. Bobosining vafotini eshitgan Pirmuhammad darhol o'rdusi bilan Samarqand yo'liga tushgan, u Balxga kelmasidanoq bu xabar Xalil Sultonga yetkazilgan edi. Xalil Sulton ayrim beklariga yana o'ttiz ming kishilik qo'shinni qo'shib, Sulton Husayn boshchiligida Pirmuhammadga qarshi yubordi. Shu bilan barobar Xalil Sulton oldinroq o'lgan Muhammad Sultonning xonimi bo'lgan Xonikani ham, Pirmuhammad uylanishni istagani tufayli, o'rduga qo'shib jo'natdi. Beklarga avval Pirmuhammad bilan ko'rishib, uning Xonikaga uylanish ishlarini yuritib, so'ngra Pirmuhammadning Amudaryoni kesib o'tishiga yo'l qo'ymaslik buyurilgan edi. Ammo beklar va o'rdu bu vazifani bajarishga ulgurolmadi. Saltanat savdosiga tushgan Sulton Husayn fitna yasab, beklarni chaqirtirdi, so'ziga kirib, tobelik bildirganlarni erkin qo'ydi, qolganlarni o'ldirtirdi;

¹¹⁶ Ўша жойда.

¹¹⁷ Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-27.

Xonikaga o'zi uylanib oldi. Keyin esa o'rdu bilan Samarqandni egallash uchun ortga qaytdi. Xalil Sulton bularni eshitib, u bilan urushish uchun Keshga kelib, kutib turdi. O'rda saf tortarkan, yonidagi beklardan ayrimlari Xalil Sulton tomoniga o'tib ketdi. Sulton Husayn nikohidagi Xonikani ham tashlab, Balxga qarab qochdi(1405 yil, iyul)¹¹⁸.

Shibirg'on va Andxud hokimi Sulaymonshoh hamda urushda yengilgan Sulton Husayn hirotga, Shohruh oldiga keldilar. Shohruh Sulaymonga Saraxsni suyurg'ol qilib, armug'onlar berib, o'zi tomonga kelayotgan akasi Mironshoh va uning o'g'li Abu Bakr tomon yo'lladi. Ammo ular yo'lga chiqmasdan turib, Pirmuhammadning Shohruhning elchisi Shohruhga maktub keltirdi, unda Sulton Husaynning qilmishlari aytilib, o'ldirilishi istalgan edi. Uning istagi qabul etilib, Sulton Husayn tutildi va o'ldirildi. Armug'onlar bilan Mironshoh tomonga yo'nalgan Sulaymonshoh Sulton Husaynning o'dirilganini eshitib, bosh ko'tardi, armug'onlarni ham o'zlashtirdi, o'zi panoh istab, Samarqandga, Xalil Sulton huzuriga qochdi.

Pirmuhammad Shohruhga yana elchi yuborib, bobosi Temurning vasiyatiga ko'ra, Movarounnahr unga oidligini, haqsizlarcha bu o'lka undan olib qo'yilganini, endi bu o'lkani qo'lga kiritish uchun amakisi o'laroq yordam ko'rsatishini istadi. Shohruh elchini ortiga qaytarib, bahorga qirq kun qolganini, ungacha qo'shin tinim olib, tayyorgarlik ko'rilishi kerakligini bildirdi. Bu yo'lda bir qadam ilgari o'tib, ulug'bek va Shohmalikni Shibirg'on va Andxuy taraflarga jo'natdi. Bu voqealar tafsiloti "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asrida atroflicha bayon etiladi. Jumladan: "Jahon sultonining oftobdek yorqin fikri mirzo Ulug'bek va amir Shohmaliklar Andxud va Shibirg'onga yuborib, u tarafni zabt etishlari hamda raiyatni idora etish va farmonravolik borasida nimaniki ma'qul va maslahatdan deb topsalar, shuni amalga oshirishlarini lozim topdi"¹¹⁹.

1406 yil qishining o'rtasida Shohruh birinchi bo'lib harakat boshladi. Uning amir Shohmalik va Ulug'bek boshchiligidagi qo'shini alamzada valiahd Pirmuhammad Jahongir lashkari bilan birlashib, daryoni kechib o'tdi. Amudaryoga ko'priq qurib, kechib o'tgan Shohmalik u qirg'oqdagi Xalil Sulton

¹¹⁸ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Б.-56.

¹¹⁹ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-87.

qo'riqchi qilib yuborgan beklardan ayrimlarini asirga tushirdi. "Ular bu yerlarga yetib kelgach, til tutib kelish uchun ba'zi suvoriylarni Jayhundan (Movarounnahr) tomonga o'tkazdilar. Suvoriylar Iso va Xizrxoiani tutib olib, qaytib keldilar. Mirzo Ulug'bek Xizrxoiani hazrat xoqoni said huzuriga jo'natdi, Isoni esa madinat ur-rijol Balxda turgan Pir Muhammad tarafiga yo'lladi"¹²⁰.

Bu yoqdan yana Shohruh bilan Pirmuhammad qo'shini yo'lga chiqib, Xalil Sultonga tahdid solib borarkan, orqada Xudoydod Husayniy bosh ko'tarib, Samarqandni egallash uchun harakatiga kirishgan edi. Xalil Sulton eng tahlkali sanagani uchun Shohmalik ustiga yurishni ma'qul ko'rdi. Bu orada Xudoydod yonidagi mo'g'ullar bilan kengashib, ortiga qaytgani xabarini oldi. Mirzo Ulug'bek va amir Shohmalik Andxud va Shibirg'onga yetgan vaqtda amir Shohmalik suv yoqasida ko'prik bog'lagan edi, mirzo Xalil Sulton suv labiga kelib, qarovullari amir Shohmalik bog'lagan ko'prikdan o'tdilar-da, uning navkarlari bilan jang qildilar. Amir Shohmalikning yaqinlaridan bo'lgan Davlatxoja qatlga yetdi. Har ikki tarafdin elchilar borish-kelish qilishib, sulhga keldilar va mirzo Xalil Sulton Samarqand tomon jo'nab, amir Shohmalik ham orqaga qaytdi¹²¹.

Yarash shartiga ko'ra, Samarqanddagi Shohruhning xazinalari, mirzolarning mollari, Shohmalikning narsalari avval kelishilganiga qaramay, berilmagani uchun endi to'la qaytarilishi kerak edi-Xalil Sulton bu shartga ko'ndi. Yarashdan so'ng Xalil Sulton Samarqandga qaytdi. Shohmalik va Ulug'bek esa, Qandahor osha Balxga borayotgan Pirmuhammadga qo'shildilar.

Pirmuhammad Xalilni taxt o'g'risi hisoblardi, bu xususda Xalil Sultonga elchi yuborib: "Marhum Sohobqiron taxt va saltanatning Xalilga oid bo'lishi tog'risida hech qanday vasiyat qilmagan",-degan gaplarni ayttdi. Xalil Sulton unga javoban: "Garchand Amir meni voris deb vasiyat qilmagan bo'lsa-da, Amirga taxtni va mamlakatni kim bergan bo'lsa, menga ham u berdi",-degan so'zlarni bildirdi. Bu javob Pirmuhammadga juda qattiq botdi. U nima qilib bo'lsa-da, Samarqandni qo'lga kiritishni istar, Shohmalikning bir oz kutish kerakligi haqidagi taklifini hech ongiga singdirolmayotgan edi.

¹²⁰ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-87.

¹²¹ Ўша асар. Б.-88.

Mirzo Pir Muhammad amir Shohmalikni chaqirtirib, (ikkovlari) Balxda uchrashdilar, mirzo Pir Muhammad mirzo Xalil ustidan ko'p shikoyatlar qildi. Uning kishilari: "Mirzo Pir Muhammad hazrat sohibqironning valiahdidir; taxt unga tegishli, chunki u og'a, mirzo Xalil esa inidir",-dedilar. (Mirzo Pir Muhammad) mirzo Xalil Sultonga elchi yo'llab: "Hazrat Sohibqiron taxtu mamlakat Xalil Sultonga qoladi, deb qachon vasiyat qilgan?"-degan mazmunda xat-xabar yubordi. Mirzo Xalil Sulton esa: "Amir (Temur sohibqiron) hazratlariga taxtu mamlakatni bergan u qodir (egam) menga ham inoyat qildi",-deb javob yubordi.

Mirzo Pir Muhammad va amir Shohmaliklar bu javobdan darg'azab bo'ldilar va uning so'zlariga qarshi ixtilofli kalimalar har chekkadan o'rta tashlandi. So'ngra lashkarlarga tartib berishib, suvdan o'tdilar. U tarafdan mirzo Xalil Sulton lashkar ahliga behisob ehsonlar ko'rsatdi¹²².

Xalil Sultonning askarlarga qilgan tuhfalari haqida Ibn Arabshoh ham tasdiqlaydi: "Xalil Sulton ular ustiga o'zining cheksiz sovutlarini kiygizdi va ular orzulari qomatiga o'z in'omi xil'atlaridan ikki barobar ko'p ulashdiki, bamisoli yer ularga o'z xazinalarini ochib, (o'z) konu ma'danlaridan zohiru yashirin boyliklarini ular ustidan to'kdi"¹²³.

Ikki taxt da'vogarlarini o'rtasidagi muzokaralardan hech qanday natija chiqmadi. Shu bois urush yangidan, yanada kuchliroq tus oldi¹²⁴.

Nihoyat, Pirmuhammad o'rdusini qo'zg'otib, Amudaryoni kechib o'tib, yurishni boshlab yubordi. Xalil Sulton ham Samarqanddan chiqib, Qarshiga yetib keldi. Bu haqda "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari muallifi guvohlik beradi: "Yurganlarida ular nafaslaridan g'alaba nasimi anqigan, zafar jilolari ular bayroqlari nurlaridan yashnagan (Qur'on) Fotiha surasi najoh va g'alabalar eshiklarini yuzlariga ochgan bo'lib, shu (bosh)liq ular bilan sayrga davom etib, Qarshi etagiga kelib to'xtamaguncha yuraverdi. U (Qarshi) zikr qilib o'tilgan shahar bo'lib, ushbu tangri yor bo'lgan askarlar (shu joyda) qaror topdilar. Bu

¹²² Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б. 88-89.

¹²³ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-37.

¹²⁴ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-59.

(voqea) 808 yil ramazon oyining boshida, (20 fevral 1406 yil) yakshanba kunida (bo'lgan) edi”¹²⁵.

Taraflar 1406 yil fevral oyida Qarshi suvi bo'yida janga kirishadilar. Jang tafsilotlari o'sha davr manbalarining deyarli barchsida yoritilgan. Hatto jangda qo'shinlarning joylashuvi, ularga qo'mondonlik qilgan sarkardalar nomlari ham zikr etilgan. Jumladan, Amir Temur va temuriylar davri tarixchilaridan yana biri Hofizi Abru o'zining “Zubdat ut-tavirixi Boysung'uriy” asarida jang tafsilotini tarix uchun yozib qoldirgan: “u tarafdin Xalil Sulton, bir to'da xurosonliklar, iroqliklar bir necha tumon bilan amir Burundiq barlos o'ng qo'lga, amir Sulaymonshoh chap qo'lga, bu tarafdin esa amirzoda Pir Muhammad qulga, uning o'ng qo'l tarafiga Nushirvon barlos, chap qo'l tarafiga amir Shohmalik va Yodgorshoh arlot (saf tortdilar)”¹²⁶.

Ibn Arabshoh bunday yozadi: “Shunda ulardan har qaysisi o'z askarini o'nggu chapga, orqayu oldinga (tartiblab) safga tortdi... changu to'zon zulmati nayzalar uchlariga ko'tarilib, ular peshin namozi vaqtida tungi yulduzlarni ko'rdilar. Shu jang g'ubori ichida har bir soydan sel buloqlari oqdi. Keyin uning yarmida “Qandahor tog'i yiqildi” (degan ibora ustidan) g'ubor ketdi¹²⁷ va u kiborlarning baxti (orzusi) puchga chiqdi, ular ustiga mag'lubiyat g'ubori yog'ilib, yengilish xabari sayr qildi... Pirmuhammadning odamlari yer tishlab, botirlari yanchildi, uning qimmatbaho boyliklari talandi, hol-ahvoli o'zgarib, haramiyu qullari asirga olindi; (uning) meros olganu o'zi kasib etgan mol-dunyolari shilindi. O'zi esa qochish etaklariga yopishib olib, o'zining eson-omon qaytishini yarim g'animat bildi”¹²⁸.

Yana bir muarrix Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, “Nasaf atrofida ikki shersifat sipoh yuzma-yuz uchrashib, jangga kirishdi. Nayza, o'q-yoy, gurzi va shamshirlar zaxmidan bahodirlar (ko'ksidan) oh ko'tarildi. G'olibu mag'lub aralashib, zarb uruvchiyu zarb yeganlar (bir-biriga) qo'shilib ketgan edi, mirzo Xalil Sulton har biri tig' bulutidan chaqmoqdek olov sochuvchi va chang to'zonini

¹²⁵ Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-37.

¹²⁶ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-543.

¹²⁷ Яъни қандаҳорликлар мағлубиятга учради. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-159.

¹²⁸ Ўша асар. Б. 37-38.

qon yomg'iriga qo'ndiruvchi bo'lgan Movarounnahr dilovrlarining bilak quvvati, xurosonlik pahlavonlar va iroqlik bahodirlarning g'ayrati bilan mirzo Pir Muhammadning g'uliga hamla qilib, o'rnidan qo'zg'atdi. Avval arlot jamoasi qochib, juvong'or va burong'orlar tarqalib ketdi. G'ul o'z yeridan qo'zg'alib jo'naganligini ko'rgan Mirzo Ulug'bek va amir Shohmaliklar ham jilovni tortdilar... Bu jang ramazon oyining ikkinchisida (21 fevral, 1406) dushanba kuni voqe' bo'ldi"¹²⁹.

Jang qizib turgan paytda Pirmuhammadning bir necha amirlari xiyonat qilib, jang maydonidan chiqib ketadilar. Natijada, Xalil Sulton jangda g'olib chiqib, Pirmuhammad Mirzo Balxga, Shohruh Mirzo qo'shini esa Xurosonga qochadilar. Bu jangda Pirmuhammad Mirzoning qarorgohi va harami Xalil Sulton Mirzo qo'liga tushadi¹³⁰.

Bu haqda "Matlai sa'sayn va majmai bayrayn"da ham guvohlik bor: "Balxliklarning aslaha-yuklari samarqandliklar qo'liga tushdi va xonika asirlikka giriftor bo'ldi. Mirzo Xalil Sulton asirlar borasida lutf ko'rsatib, hammasiga omonlik haramiyu ehson huzurxonasidan joy berdi"¹³¹.

Xalil Sulton mag'lublarni daryogacha quvdi, ammo daryo ortida Shohruh Mirzo qo'shini bilan kelib turganini eshitgach, Amudaryodan o'tmadi.

Mag'lubiyat haqida eshitgan Shohruh Hirotdan o'rdusi bilan yo'lga tushdi, Murg'ob atrofida Shohmalik va Ulug'bek uning huzuriga yetdilar, bo'lgan ishni anglatdilar. Taraflar orasida yarash ko'rishmalari boshlandi, sulhga ahd etilib, Xalil Sulton Samarqandga qaytdi. Keliboq ishonchli odamlaridan birini Pirmuhammadning vaziri Pirali Tozga yashirincha chopar qilib yubordi. Chopar unga, agar Movarounnahr taxtidan hozirgacha voz kechmayotgan Pirmuhammadni o'rtadan olib tashlasa, bu xizmati evaziga Pirmuhammadning mamlakati unga berilishini bildirdi.

Xalil Sulton yana bir muddat shon-shuhratga ko'milib yashadi, zero intiqom umidida yonib yurgan Pirmuhammad yangi bir qo'shin to'plab, Samarqand ustiga yurish qildi va bu safar ham mag'lubiyatga uchradi. Qandahorga qaytgan omadsiz

¹²⁹ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-89.

¹³⁰ Файзиев Турғун. Муҳаммад Тарағай авлодлари.//Фан ва турмуш.-1996. 4-сон. Б.-28.

¹³¹ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-89.

Pirmuhammad o'z vaziri tomonidan xiyonatkorona o'ldirildi¹³². Holbuki, Pirmuhammadxon Piralini xizmatkorlikdan vazirlik darajasiga ko'targan edi. (Afg'oniston va Shimoliy Hindiston hukmdori bo'lishni istagan Pirali beklarning isyoni tufayli Hirotga qochib boradi. Shohruh o'z birodarining qasdini olib, uni qatl etadi)¹³³. Saltanatning, uning barcha xazinalari va lashkarlarining egasi bo'lish nasib etmagan qonuniy taxt vorisining qismati ana shunday ayanchli tugadi¹³⁴.

Buni eshitgan Shohruh Balxga keldi. Bu xususdagi xabardan keyin Xalil Sulton ham Termizga beklarini yuborib, qal'ani mustahkamladi. Orada taraflar kelishib oldilar. Shohruh Balx atrofini Pirmuhammadning o'g'li Qayduga berib, o'zi Hirotga qaytdi.

Pirmuhammadning vafotidan so'ng Xalil janub xavfsizligini ta'minlagan bo'lsa-da, biroq shimol hayajonli va tahlikali edi. Chunki isyonchi Xudoydod va Shayx Nuriddin amirlar va boshqa beklarni o'z taraflariga og'dirib, nufuz doirasini kengaytirmoqda hamda katta qo'shin bilan Samarqand ustiga yaqin kelmoqda edi.

1408 yil 22 aprel kuni Qoraquyunli turkmanlarining qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'ldi. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo'lidan ketdi¹³⁵.

Muzaffar Xalil Samarqandga qaytib kelganida ahvol nihoyatda og'ir edi. U saxiylik bilan ulashgan oltin o'z qilmishini qilib, jamiyatni buzib bo'lgan edi. Ibn Arabshohning hikoya qilishicha, aholining katta qismi shaharni tashlab keta boshladi, xususan boyib qolgan ajnabiylar o'z ona vatanlari tomon yo'llandilar. "Hamma turli tomonlarga, Mag'ribu Mashriqqa tarqalib keta boshladi, zero oziq-ovqatlarning taqchilligi va qimmatligi shaharda yashashni qiyinlashtirib qo'ydi, pulning qadri tushib ketdi",-deya qo'shimcha qiladi Ibn Arabshoh. Pulning qadsizlanishi shu darajaga borib yetdiki, bir qop bug'doyning narxi bir necha qop tilla tanga yoki qimmatbaho toshga teng bo'ldi. Ko'p o'tmay faqat oziq-ovqat

¹³² Ushbu suiqasd 1407 yil 22 fevralda Pirmuhammadning amiri Pir Ali Toz tomonidan amlga oshiriladi. Файзиев Турғун. Мухаммад Тарағай авлодлари.//Фан ва турмуш.-1996. 4-сон. Б.-28.

¹³³ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-59.

¹³⁴ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-180.

¹³⁵ Мухаммаджонов. Амир Темур ва темурийлар салтанати. Б.-65.

mollarini ayirboshlashga o'tildi, bu esa shaharda ko'plab kasblarning yopilishiga va hayotning butunlay to'xtashiga olib keldi¹³⁶.

Yangi malika (Shodmulk-Y.Z.) makr-hiyla qo'llab, erini ishga soldi. Natijada, u malikalarni qator nomdor amirlarga turmushga chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Amir Temur yurishlarining sarkardalari va Shohruhning yangi tarafdorlari Sohibqironning qonuniy xotinlari va bevalari o'zlariga taklif qilinganida, Xalildan yuz o'girdilar. Solnomalarda u jiddiy ayblanadi: "Xalil o'z onalaridek hurmat qilishi lozim bo'lgan shu bechora malikalarga qilgan munoabatini hamma qoraladi; u malikalarni ularning eshiklarida xizmatkorlikka ham yaramaydigan kimsalarga zo'rlab turmushga berdi".

Xalil Sulton va Shodmulkning o'zboshimchaliklariga aynan mana shu tahqirlangan malikalar chek qo'ydilar. Amir Temurning bevalari, shubhasiz, marhum erlari tomonidan qo'llanilgan fath etish va davlatni boshqarish usullarini unutmagan edilar. Shu sababli ham ular o'zlarining yangi xo'jalarini Xalilga qarshi fitna uyushtirishga undadilar. Xotinlaridan yaxshigina ko'rsatma olgan amirlar Xalilni makr bilan Samarqanddan tashqariga olib chiqdilar va zanjirband qildilar. Hukmdorsiz qolgan Samarqandda talonchilik va parokandalik boshlandi. Ishtahasi baland bo'lgan amirlardan biri taxtni egallab olishga ham harakat qildi, biroq u o'z niyatiga yeta olmadi, zero solnomada yozilshicha: "o'z padarining xonadonida ro'y berayotgan diyonatsizliklarga chek qo'yishga ahd qilgan" Shohruh qudratli qo'shin to'plab, shahar tomon yo'lga tushgan edi¹³⁷.

3.Shohruhning hokimiyat tepasiga kelishi

1407-1409 yillar mobaynida Movarounnahr bilan Xuroson o'rtasida jiddiy bir to'qnashuv yuz bermadi. Har ikki hukmdor ichki g'avg'o va isyonlarni

¹³⁶ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-181.

¹³⁷ Ўша асар. Б. 181- 182.

tinchitish bilan ovvora bo'ldilar. Har ikki hukmdor o'z mamlakatida sodir bo'layotgan g'alayonlarda raqib tomonning tashabbusini ilg'ab olardi.

Bu yillar ayniqsa, Shohruhga qiyin bo'ldi. U to'rt yil mobaynida deyarli tinchimadi. Ulug'bek ham jangu-jadaldan bo'shamadi, necha marta hayoti xavf ostida qoldi. Sohibqironning suyukli xotini Saroymulkxonim haqida yetib kelgan xabar Shohruhni, ayniqsa, Ulug'bekni juda ranjitdi. Kelgan xabarga ko'ra, Xalil Sulton sevikli xotini Shodmulk og'oning qistovi bilan kekxa malikani majburan erga berib yuborganmish. Xalil Sultonning bu qilmishi, Shohruh Mirzoning fikricha, Movarounnahr hukmdori hokimiyatining tanazzulidan dalolat edi.

Shohruh biror nobakor bu qaltis vaziyatdan foydalanishi mumkinligini o'ylarkan, shitob bilan harakat qilishi lozimligini angladi va shunday qildi ham.

Xuroson hukmdori Xalilning dushmanlari bilan aloqa bog'lagan, ular orasida Buxoro ulamosi, hazrat Bahouddin Naqshbandiyning ikkinchi xalifasi Xoja Muhammad Porso ham bor edi. Xuddi o'sha kunlari uning huzuriga ulug' shayx kelib, Movarounnahrda bo'layotgan ishlardan arz qildi. Mavlono Abdulrahim Yonistoniyning naql qilishicha, Xoja Porso har zamon Movarounnahr musulmonlari ahvolidan Shohruh Mirzoga maktub yozib yurar ekan¹³⁸. Tabiiyki, bu Xalil Sulton uchun u qadar xavfli emasdi. Biroq boshqa tomondan, mavjud vaziyatdagi Xalilning muvaffaqiyatsizliklari, Samarqand himoyasi bilangina band bo'lib, taxtga o'tirgandan buyon hech bir yer zabt etilmagani, turmushdagi yetishmovchiliklar-barchasi xalq va o'rduda unga nisbatan norozilikni kuchaytirmoqda edi. Faqat Samarqandning muhofazasi uchungina katta bir qo'shinni saqlash unga juda qimmatga tushardi, o'rdi uchun va o'ziga tarafdor beklar uchun Temur xazinalaridan hisobsiz sarf-xarajat ketayotgan edi; ayniqsa, saroy malikalarini, xususan, bobosi Temur va amakivachchasi Muhammad Sultonga mansub bo'lgan xonimlarni ko'pchiligi xizmatkorlikdan ko'tarilgan, tagi past beklarga berib yuborayotgani ichdan unga qarshi qarshilikni kuchytirayotgan edi. Xalil Sultonning eng yaxshi ko'rgan xotini Shodmulk esa o'z darajasidan ustun va keragidan ortiq mavqega chiqarib qo'yilgan, hatto davlat ishlariga

¹³⁸ Хуршид Даврон. Сохибқирон набираси. Т.:Шарқ нашриёт-матбаа концернининг бош тахририяти-1995. Б.-353.

aralasha boshlagan edi. Yana Temur davridagi atoqli, xizmat ko'rsatgan beklarga ham yetarli hurmat-e'tibor ko'rsatilmay qo'yilgan edi¹³⁹.

Bir-birlarining ishqidan mast Xalil Sulton va Shodmulk bu orada achchiq haqiqatdan qochib, kayfu safo surishar, biri ikkinchisidan dabdabali ziyofatlar uyushtirib, ularga Samarqandning boyvachcha yoshlarini taklif qilishardi. Oshiq-ma'shuq o'z boshlariga xavf solib turgan to'fonni ko'rishni ham istashmasdi. Bu voqealarning barchasiga shu ayol sabab bo'ldi va u Xalil Sultonning hulmdorlik vayronalarini o'zi bilan olib keldi. Taxt jilovini qo'lga olgan Shodmulk bir paytlar o'zini xo'rlagan malikalar va Amir Temurning kanizaklari unga xushomad qilishlarini va oyog'iga yiqilishini istagan edi. Ammo, saroy dabdabalari va qoidalariga o'rganib qolgan bu ayollar Shodmulk xohishini bajarmadilar va hatto u bilan uchrashib qolganlarida uning bor-yo'qligiga ahamiyat ham bermadilar¹⁴⁰.

Ro'y bergan voqealar shu paytgacha saltanat toju taxti uchun temuriylar oilasida bo'layotgan kurashdan o'zini chetga olib turgan Shohruhni ham o'z qo'rg'onidan-Xurosondan, qo'shni viloyatlar hurmatini va o'z fuqarolarining mehrini qozongan o'lkasidan chiqishga majbur qildi¹⁴¹.

Nihoyat, Movarounnahrda Xalil Sulton bilan urush holatida bo'gan beklar-Xudoydod va Shayx Nuriddin Shohruhga chopar yuborib, kelib, o'lkani o'z qo'liga olish vaqti yetganini bildirdilar. Shoruh yaqinda ularga harakatga kirishishi to'g'risida xabar berdi.

Shohruh Mirzo Xoja Porso tashrifidan nihoyatda quvondi, xojaning poyqadami sabab bu safar albatta g'alabaga musharraf bo'lishini angladi. Ko'p o'tmay, shayx Movarounnahrda qaytdi. Uning yonida Shohruh Mirzoning Xalil Sultondan urush joyini muqarrar qilishi talab qilingan podshohlik nishoni bor edi. Xoja nishonni Buxoro jome' masjidida o'qib, xalqqa ma'lum qilgach, Samarqandga-Xalil Sultonga yubordi.

Muborak ramazon oyining muqaddas damlari oxiriga yetib (16 fevral, 1409) islom (dini)ning ulug' shiorlaridan biri bo'lgan iydi ramazon shartlari bajo keltirilgach va eng ulug' yoritg'ich (quyosh) o'z sharaf uyini musharraf qilganligi

¹³⁹ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Б.-59.

¹⁴⁰ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-182.

¹⁴¹ Ўша асар. Б.-183.

tufayli... hazrat xoqoni said o'z davlatmand farzandi Ibrohim Sultonni dorussaltana Hirot hukmdorligiga tayinlab amir Jaloluddinni unga mulozim qilib qoldirdi va amir Lutfulloh Boboytemir va amir Hamza qatuqularga Seiston chegaralariga borib, boxabar bo'lib turishga farmon berdi. So'ng g'alaba yor mavkab zu-l-qa'daning beshinchisida (22 mart, 1409) Bodg'iz tomonga yo'naldi va lashkarlarni to'plash haqida shohona buyruq sodir bo'lib, andak muddatda fathu zafar oftobining chiqish joyi bo'lmish g'alaba oyatlari bitilgan bayroq soyasida chegarasi gumonga sig'maydigan va hisobini fikr tarozusi tortib ko'rolmaydigan (katta) sipoh jam bo'ldi¹⁴².

Xalil Sultonga qarshi yurish 811 yil zulqa'da oyining beshinchi kuni (1409 yil 22 martda) – Ulug'bek Mirzo rosa o'n besh yoshga to'lgan kuni boshlandi. Hirotidan chiqqan Shohruh qo'shini Bodg'izga keldi. Tusda hukmfarmolik qilatatgan Ulug'bek ham shoshilinch Bodg'izga da'vat etildi. Ota-bola Bodg'izda ekan, Shohruhning taxmini tog'ri chiqdi: Xalil Sulton hokimiyati zaiflaganidan foydalangan Xudoydod Husayniyning isyon boshlagani haqida xabar keldi.

Shu tariqa (Pirmuhammadning vafotidan so'ng-Y.Z.) Xalil janub xavfsizligini ta'minlagan bo'lsa-da, biroq shimol hayajonli va tahlikali edi. Chunki isyonchi Xudoydod va Shayx Nuriddin amirlar va boshqa beklarni o'z taraflariga og'dirib, nufuz doirasini kengaytirmoqda hamda katta qo'shin bilan Samarqand ustiga yaqin kelmoqda edi¹⁴³.

1409 yilda Shohruh Bodg'izga keldi. Xalil ham Keshga qo'ngan edi. Shunda Xudoydod bosh ko'tardi, Xalil Arg'unshoh va amir Ollohdod rahbarligida osiylarga qarshi lashkar yubordi. Vaholanki, bu ikki zot dushman bilan yashirincha ittifoqda edilar. Yana yordam talab etilganida, o'zi to'rt ming kishilik qo'shin bilan isyonni bostirish uchun jo'nadi. Ammo Samarqand atrofidagi olishuvda Xudoydod qo'lga tushib qoldi (1409 yil, mart)¹⁴⁴.

Mirzo Shohruhning Xalil Sulton ustiga yurishi va Xalilning isyonchi amirlar qo'lga tushib qolishi tafsilotlarini “Matlai sa'dayn va majmai bahrayn” asaridan quyidagicha o'qiymiz: “Mirzo Xalil Sulton hazrat xoqoni saidning Bodg'izda

¹⁴² Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б. 145-146.

¹⁴³ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-59.

¹⁴⁴ Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Б.-59.

lashkar to'plaganini eshitgach, u ham ko'p sonli lashkar bilan Kesh atrofiga keldi va bu yerda amir Xudoydod Husayniy Xo'jand suvi labiga yetganligi xabarini eshitdi. Mirzo Xalil amir Ollohdod va amir Arg'unshohlarni uch ming otliq bilan birga u tarafga yurishga tayin qildi. Har ikki lashkar Dizoq chegaralarida bir-biriga yaqin yetib, bir necha kun (jangsiz) ro'baro' turdilar. Amirlar Mirzo Xalildan madad so'radilar. Mirzo Xalil to'rt ming otliq bilan ilg'or qilib chiqdi va Samarqanddan o'tib, Sheroz qishlog'iga kelib tushdi. Xudoydod bundan ogoh bo'lib kunduzi dushmanga ko'rinish berdi-da, butun kecha ot surib ertasiga peshin namozi vaqtida xuddi yorqin chaqmoqdek mirzo Xalil Sultonga yetishdi urush olovini alangalantirdi; samarqandliklar tarqalib ketib, mirzo Xalil Sulton Sherozning vayron hisoriga kirdi. Amir Xudoydod shu ondayoq Sherozni oldi va mirzo Xalil Sultonni qo'lga tushirdi. Bu voqea zu-l-qa'daning o'ninchisida (30 mart, 1409) voqe' bo'ldi"¹⁴⁵.

Ibn Arabshoh esa bo'lgan voqealar bayonini quyidagicha tasvirlaydi: "Nihoyat, Xudoydod Sultoniyaga borib yetdiki, u Temur bunyod qilgan bir kasaba edi. Uning kelganini biron kishi ham shuur etmay, faqat balo mavjlari har tomondan ustiga yopirilgandan keyingina Xalil Sulton uni sezdi. U bilan bo'lgan barcha hamrohlari qo'zg'olib, jangu jadal va zarbu ta'naga boshladilar va hayot-mamot urushini qilib, ajalu poymonlari to'lganligiga aniq ishondilar. Ustlariga qattiq tishlovchi jang tish qayrab, ularning qay birini mayda, qay birini yiqitib, qay birini burdalab tashladi. Natijada, ulardan faqiriyu azizi o'ldirilib, dushmanlari o'yiga ular habiblari va Xalil (sevimli)lari tushdi Xudoydod esa muvaffaqiyat qozonib, zafar topganidan sevingan holda o'z lashkargohiga qaytdi"¹⁴⁶.

Shohruh Mirzoga ketma-ket kelgan xabarga ko'ra, Xalil Sulton jangda yengilib, isyonchi amir Xudoydod qo'lga tushibdi, Sohibqiron poytaxti amir Xudoydod qo'lga o'tibdi. Shodmulk ham eri bilan birga asir olingan edi.

Olijanob, lekin baxtsiz Xalil o'zini qo'riqllovchi, sodiq sanalgan kichik bir guruh kuzatuvida qolgan paytda unga xoinlik qildi va Sheroz qal'asi xarobalarida Xudoydod lashkarlarining tajovuziga duchor kelib, asir tushdi. O'zining sobiq tobesi huzuriga jo'natildi. U bu yerga toju taxtdan voz kechishga isyonchilar

¹⁴⁵ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-146.

¹⁴⁶ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-56.

tomonidan berilgan Koshg'ar hokimiyatini qabul qilishga majbur bo'ldi. Shu bilan barobar uning eng katta falokati, taqdirning kutilmagan zarbasidan emas, balki dilonidan sevgan mahbubi Shodimulkdan ayrilish edi¹⁴⁷.

Shu asnoda mirzo Xalil Sulton amir Xudoydod Husayniyning qo'liga asir tushib, Movarounnahr mamlakati tanglikda qolganligi xabari sharofatli quloqlarga yetishdi¹⁴⁸.

Shu o'rinda Sohibqironga munosib voris bo'la olgan, Temuriylar davlatini markazlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan Shohruh Mirzo haqida ayrim xorijiy va mahalliy mualliflarning fikrlari bilan tanishsak.

Shohruh Mirzo Amir Temurning to'rtinchi o'g'li bo'lib, 14 rabbi ul-soniy 779/1377 yil 20 avgust payshanba kuni tug'ilgan. Uning onasi Tag'oy Turkon og'odir. G'arbiy Yevropa olimlaridan ba'zilari, jumladan Bretshneyder Shohruh Mirzo Saroy Mulkxonimdan tug'ilgan, deb yozadi. Tarixchi Xondamirning bergan ma'lumotiga qaraganda, Shohruh Mirzoning onasi Tag'oy Turkon og'o bo'lib, sohibqiron Amir Temurning xos kanizaklaridan bo'lgan. Xondamir mazkur ma'lumotni Shohruh Mirzoning o'zi tuzdirgan "Nasabnoma"dan olganligiga ishora qiladi. Ammo sohibqiron o'g'li Shohruh Mirzoni Saroy Mulkxonim tarbiyasiga topshirgan¹⁴⁹.

Shohruh Mirzo bolaligidan bevosita otasi Amir Temur hamda temuriy malikalarning tarbiyasini oldi, saroy qonun-qoidalarini o'rgandi, otasining pandu o'gitlaridan o'ziga saboq chiqardi. Padari buzrukvori Sohibqiron Amir Temurga har tomonlama o'xshashga intildi, uning faoliyatiga sinchkovlik bilan e'tibor berib, siyosiy faoliyatini otasining hayotlik vaqtidayoq boshladi. Shohruh Mirzo rahmdil, adolatli hukmdor edi¹⁵⁰.

Shohruh o'ttiz yoshlardagi saxiy va olijanob inson bo'lib, ilm ahli va hunarmandlarni o'z panohiga olgan, biroq kezi kelganda jasur jangchi va mohir sarkarda edi¹⁵¹.

¹⁴⁷ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-59.

¹⁴⁸ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-146.

¹⁴⁹ Турғун Файзиев. Темурийлар шажараси. Б.-295.

¹⁵⁰ Ўлжаева Шохиста. Шохрух Мирзо ўғитлари.//Мозийдан садо.-2003. N-2. Б. 34-35.

¹⁵¹ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-183.

Saltanat hududida ro'y berayotgan voqea-hodisalar uni (Shohruhni-Y.Z.) sulolaning haqiqiy sardori sifatida ishtirok etishini tobora talab qilardi. O'zining diniy qarashlari tufayli zo'ravonlik va kuch ishlatishni inkor etuvchi so'fiylar tariqatiga a'zo bo'lsa ham, u Pirmuhammadning qotilini qidirib qo'lga olgan, amakivachchasi Pir Umarni azoblab o'dirgan temuriy shahzoda Iskandarni qatl ettirgan edi¹⁵².

Shohruh-temuriylarning eng mashhur va olijanob bir shahzodasi bo'lib, uning saroyi zamonasining fan va maorif o'chog'i edi. Xurosonning maorifga moyil eron unsuri orasida u o'zini nihoyatda baxtli hisoblardi. Shu bois Movarounnahrda hokimiyat masalasi va otasining vafotidan keyingi voqealar uning e'tiborini qattiq tortardi. Lekin sulola manfaati qattiq tahlikaga tushganligini ko'rgandan keyin, urushni qanchalik sevmasa-da, o'zini tutib tura olmadi. Qarindoshi Xalilning falokat xabarini eshitgach, darhol o'zining lashkari bilan Xudoydodga qarshi harakat boshladi¹⁵³.

Keyingi voqealar rivojini bilish maqsadida Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" kitobini varaqlaymiz: "Keyin Xalil Sulton qolgan amirlarga, lashkar boshliqlariyu vazirlariga xat yuborib, Xudoydodga bo'ysunib, u bilan nizo chiqarmasliklarini, u istagan murodga qarshilik ko'rsatib monelik qilmasliklarini ma'lum qildi. Natijada, ular hammalari Xudoydodga bo'ysunib, tasli bo'ldilar va uning homiyligini qabul qildilar. U safarbar etilgan qo'shinga ega bo'lib, firib balolaridan nishonga yetuvchi nayzalaru hind qilichlari bilan (qo'rg'ondek) mustahkamlanib olgach, Jand va Xo'jand qo'shinlari, Turkistonning gapga no'noqlariyu O'zjand avomlarini muqaddam qo'yib,-ulardan boshqalarni orqada qoldirib,-Samarqandga qarab ilgarilab yurdi... Xudoydod Samarqandga yetib kelib, unga kirdi. Natijada, mavjud rusumlar va qismatlar alg'ov-dalg'ov bo'lib, go'yo turli -tuman xalaqlar va diyonatlar ixtilofi zohir bo'ldi. Xudoydodning Ollohdod deb ataladiga (bir) o'g'li bo'lib, otasi ochiq-oydin xaloyiq o'rtasida uni sulton deb nomladi va yashirin xazinalarni qidirib, ular tog'larida lonlaru ma'danlar izladi, ko'milgan boyliklar va bekitilib, yashirilgan dafinalar talabida bo'ldi. Vaziyat o'zgarib muloyimlik qo'polikka badal bo'ldi va

¹⁵² Ўша жойда.

¹⁵³ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-60.

ular (Samarqand ahli) go'yo shu aytilgandek bo'lib qoldilar. Sifatlar tanimaydigan darajada o'zgardiki, hatto go'yo zotlar (mazmunlar) boshqasiga aylandi, yoinki yer (bu yerdan) o'zga yeru osmonga almashib ketdi"¹⁵⁴.

Abdurazzoq Samarqandiyning guvohlik berishicha esa: "Amir Xudoydod farmon va hukmlar yozib, mirzo Xalilning muhrini bosar va mamlakat atroflariga yuborar edi. Shu tariqa Movarounnahr viloyati unga bo'ysundi"¹⁵⁵.

Bu xabar Shohruhga yetgach, "U qahrlanib, g'azabi keldi", iztirob chekib, alamzada bo'ldi; tevarak-atrofga o'zini urib, sabr-kosasi limmo-lim to'ldi, betoqatlanib, qovog'i solindi, uning yuzi o'zgarib, qizardi, u faryod solib, bezovta bo'ldi va tangridan rijo tilab¹⁵⁶ "lo havlo"¹⁵⁷ ni o'qidi; u ich-ichidan kuyib-yonib, qayg'u alamga botdi va oh-voh chekdi. Keyin o'zinig farmonlari yorliqlari bilan o'z yerlari atroflariga har bir uchqurni askar to'plash (xabari) bilan uchirdi va Shoh Malikka hech bir ikkilanmasdan yo'lga chiqishni, sira dam olmasdan sayrini davom ettirib, o'z zotdor otlari bilan qushdan ham tez uchib kelishini buyurdi... Natijada, Shoh Malik o'sha zahotiyog tog'dek madadli, qumdek adadli askar bilan (yo'lga) chiqdi. Keyin uning izidan boshqa suvoriylar, husravona qirg'iylar bilan Shohruh chiqib, hechbir kimsaga qaramasdan va o'z harakatida tolei rasadga tayanmasdan yurdi¹⁵⁸.

Qarindoshi Xalilning falokat xabarini eshitgach, darhol o'zining lashkari bilan Xudoydodga qarshi harakat boshladi¹⁵⁹.

Shohruh Mirzo bir oylik tayyorgarlikdan so'ng, Samarqandga tomon yurish boshladi. Amirzoda yo'lda paytida amir Xudoydodning elchisi kelib, Shohruh bilan uchrashdi. Xudoydod urushga tayyor emasligi uchun riyokorona suratda unga itoat qilajagini bildirdi¹⁶⁰. Elchi olib kelgan maktubga ko'ra, amir Xudoydod amirzoda Xalil Sulton bilan Shodmulk og'oni Shohruh qo'lga topshirishga tayyor, ammo bir shart evaziga, marhum Muhammad Sultonning o'g'li Muhammad

¹⁵⁴ Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-58.

¹⁵⁵ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-146.

¹⁵⁶ Qur'on, 2-sura, 156-oyatdan. Bu musibat tushganda "Xudo asrasin" ma'nosidas aytiladigan ibora bo'lib, lug'aviy ma'nosi "biz Oллоhga mansub bo'lib, unga qaytuvchimiz", demakdir. Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-161.

¹⁵⁷ Ўша жойда.

¹⁵⁸ Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-58.

¹⁵⁹ Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Б.-60.

¹⁶⁰ Ўша жойда.

Jahongirni Samarqand hukmdori deb tan olsa. Shohruh amir Xudoydodning maqsadini tushundi: u taxtga yosh bolani o'tqazib, o'zi uning nomidan mamlakatni boshqarmoqchi edi.

Shohruhning amir Xudoydod bilan muzokaralari bayonini "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asaridan kuzatamiz: Bu xabarlar hazrat xoqoni saidga arzga yetkazilgach, zu-l-qa'daning yigirma birinchisida (7 aprel, 1409) humoyun mavkab Movarounnahrqa qarab yurdi. Onhazrat (ilgariroq) amir Cherkasni mirzo Xalil Sulton huzuriga yuborgan edi, Amir Xudoydod o'z navkari va mirzo Muhammad Jahongirning navkarini Cherkasga qo'shib (xoqoni said oldiga qaytardi) va ular Qutlug' Temur rabotida o'rduga yetib keldilar va amir Xudoydodning: "Men onhazratning quliman, bu xil ishlar xizmatkorlik yuzasidan sodir bo'ldi, endi qay tarzda hukm bo'lsa, uni adoga yetkazaman",-degan so'zlarini arz qildilar. Hazrat xoqoni said Xudoydodning navkariga Chubin qavchinni qo'shib uning huzuriga jo'natdi va: "Endi bizda biror ixtiyor qolmadi, biz o'zimiz yetib boramiz, har nimaiki to'g'ri topilsa, insho Olloho taolo, o'shanga amal qilinadi; amir Xudoydod hech taraddusiz bizning huzurimizga yuzlansin, podshohona inoyat uning ahvoliga qaratilgandir",-degan xabarni yo'lladi. Zu-l-hijjaning oltinchisida (22 aprel, 1409) onhazrat (Jayhun) suvining labiga yetdi¹⁶¹.

Bu paytda amir Shayx Nuriddin amir Xudoydoddan Movarounnahrqa borishga ijozat so'ragan edi. Amir Xudoydod: "Qachonki Shohruh Mirzo Movarounnahrqa qarab yursa, men ham oliy o'rduga borib qo'shilaman",-deb javob qaytardi. U bu ahddan so'ng Buxoroga kelganida, amir Shayx Nuriddinning o'rduga qarab yo'lga chiqqanligining xabarini oldi va tezda Samarqanddan qo'shin bilan chiqib, Shayx Nuriddin ustiga hujum qildi va askarlarini tor-mor keltirib, Samarqandga qaytdi.

Shunday qilib, Shohruh Mirzoning qo'shini Amudaryodan o'tdi. Bu vaqtda amir Xudoydod mirzo Ahmad Mirak va mirzo Saydi Ahmadlarni Hisor viloyatini egallash uchun yuborgan edi. Lekin shahzodalar ularni chaqirish haqida farmon bo'lmasdan turib, amir Xudoydod farmoniga qarshi o'laroq, oily o'rduga yetib

¹⁶¹ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-147.

kelib, Shohruhning marhamatiga sazovor bo'ldilar. Xalil Sultonning xotini Shodmulk og'oni Abdulxoja o'rduga yetkazdi.

Shundan so'ng Ibn Arabshohning ko'rsatishicha: "Qachonki (bu) dengiz ushbu tog'larni kesib o'tib, (bu) xabar Xudoydod (qulog'iga) yetgach, o'zining pashshalariyu maymunlariyu maymunlarini Shohruh bo'rilariyu sherlariga yarasha quvvati yo'qligiga, aksar askarining o'zidan qochib, unga taslim bo'lishiga hamda u (Xudoydod)ning o'zini tutib, Shohruhga topshirishlariga ishonchi komil bo'ldi. Natijada, u o'z orzu havaslarini takomiliga yetkazilishga shoshilib, o'z matlablarini tayyorlashga oshiqdi. Qo'li yetganicha mol-dunyoni olib, o'z imkoni qadricha nafis buyumlariyu yuklarini yukladi va Xalil Sultonni o'z suhbatiga olib, Andikon (Andijon-Y.Z.) qarab yuzlandi. Ollohdod, Arg'unshoh va Bobo Tarmishni qal'ada qoldirib, ulardan birovini ham o'z suhbatiga olishdan Xudoydod xazar qildi. O'z Xalili firoqigs garov bo'lib, o'zidagi bor (bo'lgan) izzati shilinib, xor bo'lgan Shodmulkni ham shaharda qoldirdi¹⁶².

Xuzor (ga yetganda) Xudoydodning tama tishi noumidlik tanglayida singach va zamona oshig'i uning murodicha o'girilmagach, mirzo Xalilni band qilib tez sur'at bilan qochishga yuz tutganligi haqida xabar keldi¹⁶³.

Xudoydod (Samarqanddan) uzoqlashgan va Shohruh tomonidan (hali) hech kim kelib yetmagan hamda fuqaroga hali na orqa (tayanch) na bosh bo'lmagan (bir vaqtda), ollohdod va Arg'unshoh Shohruh tomonga yuzlanib, uning istiqboliga chiqishga yuzlanib, uning istiqboliga chiqishni iroda qildilar. Shunda Xoja Abdulavval ularga qarshi qo'l ko'tarib, (ularning) qal'adan chiqishlarini man etish uchun o'z posbonlarini qo'ydi. Ularga qarshi u shahar shutterlaridan ko'mak so'radi. Bundan oldin Ollohdod unga ozor yetkazib, qahrini qo'zg'agan ediki, bu Xoja Abdulavvalda Ollohdodga qarshi nafrat uyg'otgandi. Xoja Abdulavvalning riyosati (payti)da ikki odam orasida ixtilof chiqmadi va raiya ustida hukm yuritishda "ikki serka suzishmadi"¹⁶⁴; uning ishorati amru nahiylar bilinib, farmonlari ariqlari xalq orasida to'xtovsiz oqib, o'sha o'tgan kunlarda uning amrlari itoatda bo'ldi. Xoja Abdulavval raiyalar ustidan siyosat yurgizib, Ollohdod va uning

¹⁶² Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-59.

¹⁶³ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-148.

¹⁶⁴ Arab xalq maqoli. Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-161.

sherigi (Arg'unshoh) hamda ular bilan birga bo'lgan kishilar ustiga posbonlar tayinlab, Shoh Malik qo'shinlarining old qismi Samarqandda tulu' qilib, ular orqasidan Shohruh askarlari kelmaganlaricha ushbu masala tangligini (tobora) shiddatli qilaverdi¹⁶⁵.

Shohruh bunga qaramay Samarqand ustiga yurdi va shahar xalqi tarafidan g'oyatda tantanali ravishda kutib olindi¹⁶⁶. Bu haqda "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn"dan o'qiymiz: "Humoyun mavkab davlatu iqbol bilan shan-shavkat qarorgohi (Samarqand)ga yuzlandi. (Xoqoni said) o'zidan ilgariroq amir Alouddin Alikani devonaminlari bilan birgalikda shahar va xazinalarni zabt qilishga jo'natdi. Samarqandning ulug'lari Raboti Yomgacha kelishib kutib olish shartlari, ulug'lash ham hurmatlash rasm-rusumlarini bajo keltirdilar, Mirzo Muhammad Jahongir va boshqa amirlar (xoqoni saidning) qo'lini o'pish sharafiga yetishdilar. Yigirma yettinchi zu-l-hijjada (13 may, 1409) dorussaltana Samarqand humoyun mavkabning qarorgohi bo'ldi. (Samarqand) akobirlari va shariflari duoyu sanolarni adoga yetkazishib, shod-xurramliklar qildilar. Onhazrat hammani podshohona in'om va xusravona inoyatlar bilan izzatlab, mehribonliklar ko'rsatdi. Amir Shayx Nuriddin va amir Mubashshirlar mulozimati qilish sharafi bilan saodatga erishib, ulug' amirlar qatoriga tizildilar"¹⁶⁷.

Shunda shahar ahli Shohruh istiqboliga chiqib, uning hiloli peshonasi ruiyatidan sevindilar. U qonun-qoidalarni to'g'rilab, uzoq-yaqin kishilar martabalarini tartibga solishga kirishdi. So'ngra u har kimsani o'z o'rniga o'rnashtirib, odamlardan har birini o'z martabasiga (muvofig maqomga) qo'ydi¹⁶⁸.

Samarqandga kirgan kuniyoq Shohruh Mirzo Ulug'bek, amir Shohmalik va boshqa akobilar bilan Ko'ksaroydagi Amir Temur xazinasini ko'zdan kechirishga bordilar. Xazina bo'shab qolgan edi. Shohruh o'z askarlariga Xalil tomonidan talon-taroj qilinib, amirlarning uylarida, omborxonalarida va somonxonalarida, do'konlar va hatto jarlarning tublariga yashirilgan o'sha mashhur xazinaning qolgan-qutganini yig'dirdi. Jamlangan boyliklarni saroyning qulflari mustahkam

¹⁶⁵ Ўша асар. Б.-60.

¹⁶⁶ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-60.

¹⁶⁷ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. Б.-148.

¹⁶⁸ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б.-60.

xonalariga joylashtirdi; afsuski, xazinaning asosiy qismi yo'qolib bo'lgan, yiroqqa-qo'l yetmas o'lkalarga ketib bo'lgan edi.

Bir necha kundan keyin Xalil Sulton bilan Shodmulk xizmatida bo'lgan, xazinaning bo'shashiga "hissa qo'shgan" amiru amaldorlar, taftish natijasida aniqlangan gunohlari bo'yinlariga qo'yilib, o'limga buyurildilar.

Shohruh o'z askarlariga Xalil tomonidan talon-taroj qilinib, amirlarning uylarida, omborxonalarida va somonxonalarida, do'konlar va hatto jarlarning tublariga yashirilgan o'sha mashhur xazinaning qolgan-qutganini yig'dirdi. Jamlangan boyliklarni saroyning qulflari mustahkam xonalariga joylashtirdi; afsuski, xazinaning asosiy qismi yo'qolib bo'lgan, yiroqqa-qo'l yetmas o'lkalarga ketib bo'lgan edi.

Shunday qilib, Shohruh adolatni qaror topdirish uchun Samarqandga keldi. Mulkdorlar va hunarmandlar unga shahar davozaalarini keng ochib, "aybdorlar bilan hamkorlik qilganlar" ni uning qo'lga topshirdilar va qilgan jinoyatlari va yo'l qo'ygan xatolari uchun jazolashni so'radilar. Dastlabki kunlar shahar bozorlarida jiddiy orani ochiq qilishlar bo'lib o'tdi... Xalil Sultonning maslahatchilari qatl etildilar, Samarqandda qolgan amirlarning ko'pchiligi Xalilning taxtini egallab olishga rahnamolik qilganlari uchun zindonband etildilar¹⁶⁹.

Keyin Ollohdod va uning sherigini qo'lga olib, ularni turli uqubatlar bilan qiynab, xilma-xil azob berdi va turli tuman aziyatlar qo'llab, mol-dunyolarini xolis qilib oldi. Keyin, Bobo Tarmishdan boshqasini shafqatsiz itoblar bilan o'ldirib, ularni bu dunyodan oxiratga ko'chirdi. Ammo Bobo tarmishni esa azob-uqubatga solib, xilma-xil jazoga tortdilar... Shunday qilib, ishlar Shohruh (hukmi)ga qaror topib, ko'kraklar to'lib nafas olib, odamlar bellari (unga) bukildi. Birov ko'tarilib, birov quyi bo'ldi¹⁷⁰.

Shaharda tartib-intizom tiklangach, Shohruh tantanali ravishda otasining qabrini ziyorat qildi va qaytadan dafn marosimini uyushtirdi. Musulmon so'fiy sifatida mazkur dargohni ziyoratchilar va toat—ibodat uchun qulay qilish

¹⁶⁹ Люсьен Керен. Амир Тему́р салтанати. Б.-183.

¹⁷⁰ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Тайму́р. II китоб. Б.- 60.

maqsadida u Xalil xilxonani to'ldirib tashlagan ortiqcha yaltiroq narsalardan xalos qildi¹⁷¹.

Shundan so'ng, Shohruh Mirzo otasi dafn etilgan Muhammad Sulton madrasasidagi shariat qonun-qoidalariga zid keladigan Temurning kiyimlari, qurol-aslahalari va barcha qimmatbaho bezaklarini xazinaga qaytaradi. Temur va Muhammad Sulton Mirzo jasadlarini madrasa xonaqohidan ko'chirib, po'lat tobut o'rniga yog'och tobut soldirib, hozirgi Go'ri Amir maqbarasiga dafn ettiradi. "Keyin Shohruh o'z padari (qabri)ni ziyorat etib, aza shartlarini ado qildi. Qabrga mutasaddiy qorilar tartibi va qorovullarni yangiladi. Bu xususda moyana oluvchilar va xizmatkorlar haqlarini boshqatdan belgiladi. Otasi qabri ustida bo'lgan anjomlar, matolar va qurol-aslahalarning aksar qismini o'z xazinalariga ko'chirib, xazinalar xirmonlarini yig'dirdi va o'sha yashirilgan boyliklar makonlarini kavlati"¹⁷².

Oradan ko'p o'tmay, Xalildan ham xabar keldi: bir mo'g'ul o'rdasining Amir Temur avlodlariga sadoqatli bo'lgan boshlig'i uni quturgan g'animlari qo'lidan qutqarib qolgan ekan. Solnomada aytilishicha, u o'zi turgan qarorgohida ham "firoqda azob chekayotgani, ayriliqning iztiroblari va visol ishqida yonayotgani haqida she'rlar bitardi"¹⁷³.

Xudoydod Toshkentga qochib ketdi va mo'g'ul xoni Muhammadxondan boshpana so'radi. Lekin Muhammadxon Shohruh kabi iqtidorli bir zotga qarshi kurashga jasorat qilolmadi. Aksincha, o'zining birodari Sham'ijahonga bu osiy qochoqni tutib olishni amr etdi. Oradan ko'p o'tmadi: Xudoydodning boshi olinib, mo'g'ul xonining sadoqati nishonasi sifatida Shohruhga taqdim etildi¹⁷⁴.

Ko'p vaqt o'tmay, amir Xudoydod mo'g'ul xoni Muhammadxondan yordam so'rab borgani, xon uni o'ldirgani, xiyonatkorning boshi Samarqandga jo'natilgani, Xalil Sulton Mirzo esa avval Xo'jandda, keyin O'trorda kuch to'plash uchun uringani va Shayx Nuriddin huzuriga borgani, ammo ishi yurishmagani haqida xabar keldi. Shohruh bo'lajak g'avg'olarning oldini olish maqsadida Turkistonga

¹⁷¹ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б. 183-184.

¹⁷² Ибн Арабшох. Ажойиб ал-макдур фи тарихи Таймур. II китоб. Б. 60-61

¹⁷³ Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. Б.-184.

¹⁷⁴ Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Б.-60.

qarab yo'l oldi. Shayx Nuriddin bir muddat avval Samarqandni egallagan Shohruh bilan Uzunotada ko'rishgan, o'rtada ahd bog'langan edi. Ahdga ko'ra, Xalil Sulton Movarounnahr o'lkasidan chiqib ketishi va Rayga borishi, xotini Shodmulk ham u bilan birga bu yerlarni tark etishi kerak edi.

Toj-taxt uchun kurashlarda yengilgan Xalil Sulton Shohruh tomonidan unga berilgan Ray viloyatida oz vaqt hokimlik qildi va 1411 yilda og'ir xastalikdan vafot etdi. Judolikka chiday olmagan Shodmulk ham o'z joniga qasd qildi.

Xalil Sulton bilan qilingan shartnomaga ko'ra, 1409 yilda urush harakatlari to'xtatildi. Shohruh Samarqand taxtiga o'g'li Ulug'bek Mirzoni o'tqazib, uni hokim etib tayinlab, idoraviy va askariy ishlarni yuritishni amir Shohmalikka topshirdi. Balx hukmronligini ikkinchi o'g'li Ibrohim Mirzoga(1396-1435), Hisor hukmronligini Muhammad Sultonning o'g'li Muhammad Jahongir Mirzoga(1396-1433), Farg'onani Umarshayx Mirzoning 22 yoshli o'g'li Ahmad Mirzoga,(1388-1425), ota mulki Qandahorni esa Pirmuhammadning o'gli Qaydu Mirzoga in'om qildi va o'zi Hirotga qaytdi¹⁷⁵.

Shunday qilib, 1409 yilda Xalil Sultonning tutqun qilinishi Samarqandning qo'lga olinishi bilan Temur taxti uchun boshlangan ichki kurashlar tugatildi. Shohruh Hirotga qaytgach, turli davlatlardan, o'lkalardan elchilar Samarqandga kelib, shahar fathi bilan muborakbod etdilar. Elchilar orasida Dashti Qipchoqdan kelganlar ham bor edi, ularning maqsadi Temur va To'xtamishxon davrida buzilgan munosabatlarni qayta tiklash edi.

¹⁷⁵ Файзиев Турғун. Муҳаммад Тарағай авлодлари//Фан ва турмуш-1996. N-4. Б.-28.

Xulosa

Amir Temur buyuk davlat asoslarini barpo etdi. Uning davlati o'zbek davlatchiligi tarixining eng rivojlangan bosqichini tashkil etadi. Saltanatda barcha sohalarda tub burilishlar, yuksalishlar kuzatilgan. Taraqqiyot uchun xizmat qilgan Amir Temur faoliyati bilan bog'liq tarixiy qadriyatlar allaqachon umuminsoniy qadriyat darajasiga yetib ulgurgan.

Lekin markazlashgan va adolat tamoyillariga asoslanib boshqarilgan mamlakat asoschisining vafoti Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyatni o'zgartirib yubordi. Uning vafotidan keyingi to'rt yil Temuriylar davlatining keyingi taqdirini belgilab berdi.

Temur vorislik maydonida o'zidan ilgari hukmronlik qilgan mo'g'ullar singari baxtli bo'la olmadi. Mo'g'ul hukmdori katta bir mamlakatning asosini tuzdi, o'g'illari va vorislari vositasida uni kuchaytirdi hamda kengaytirdi. Temur esa hokimiyatning binosini baland ko'tardi; ammo uning farzandlari kuchli suyanchiq bo'lish o'rniga, noahillik va o'zaro urushlar qilib, bu imoratning nurashiga va qulashiga olib keldilar. Chingiziylar O'rta va G'arbiy Osiyoda ikki asrga yaqin hukm surdi. Temurning vorislari esa, garchi ular orasida hokimiyat ishlaridagi mahorati, porloq iste'dodi va olijanoblighi bilan kelajak nasllarni uzoq davr hayratga soladigan zotlar bo'lsa-da, saltanatni atigi bir asrga yaqin boshqarib turdilar, xolos.

Temur vafotidan oldin Pirmuhammad Mirzoni o'zining taxt vorisi deb vasiyat qilgan edi. Lekin Sohibqironning vasiyatiga amal qilinmadi, har kim o'z

bilganicha ish tutdi, amirlarning ichgan qasamlari qasamligicha qoldi. Birinchi bo'lib qasamdan Temurning yaqinlari kechishdi. Shayx Nuriddin bilan Shoh Malik ham, Temurning bevalari ham vasiyatga xilof ravishda hokimiyatni Shohruhga topshirish payiga tushdilar. Shuning uchun ular Temurning o'limini Xalil Sultondan ham, Sulton Husayndan ham sir tutdilar. Toshkent va Sayramga borgan choparlar shahzodalarga gapning rostini aytishmadi. Faqat Sohibqironning og'ir betob bo'lib qolganini xabar qildilar, xolos. Hirotga yuborilgan Shayx Temur Qavchin esa bo'lgan gapni ochiq-oshkor aytdi. Shundan keyin Shohruh o'z nomiga xutba o'qittirib, pul zarb ettirdi.

Sohibqiron vasiyatini dastlab vorislari, so'ng ayrim lashkarboshilar va amaldorlar buzib, ko'proq shaxsiy manfaatlarini ko'zlab ish yuritdilar. Natijada, salkam besh yil mobaynida behuda qonlar to'kildi, boyliklar talandi va parokandalik hukm surdi. Shu yillarda saltanat ichida boshlangan boshboshdoqlik tobora avj olib, uni ich-ichidan zaiflashtirib bordi. Podshohlarning, shu jumladan, Amir Temurning ham ko'p xotinlili o'zaro kurashlarni avj oldirdi. Chunki otasi bir, onasi boshqa farzandlar va nabiralarning har biri o'zini taxtni egallashga haqli deb hisoblardi.

Hali Sohibqironning jasadi sovumasdanoq temuriy shahzodalar, boshliqlar va arkoni davlat orasida parokandalik boshlanib ketdi. Sohibqironning vasiyatiga sodiq qolishga qasamyod qilgan shahzodalar tez kunda vasiyatdan yuz o'girib, taxt uchun kurashga tushib ketdilar, harbiy va ma'muriy boshliqlar esa guruhbozliklarni avj oldirdilar. Saltanatni boshqarishda temuriy shahzodalar, sahroyi chingiziy shahzodalaridek hamjihatlik bilan birlasha olmadilar. Aksincha, o'zaro qonli nizolarni boshlab, mamlakatni janggohga aylantirdilar va mehnatkash xalqni og'ir musibatlarga duchor qilib, mamlakatning parchlanib ketishiga sababchi bo'ldilar.

Temur vafotidan keyin qariyb besh yil davom etgan o'zaro urush va isyonlar, shubhasiz mamlakat aholisining iqtisodiy ahvoliga keskin ta'sir qilib, xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan edi. Temuriyzodalar oly hokimiyat uchun, noiblar o'z viloyatlarida mustaqil bo'lib olish uchun kurashdilar.

Sohibqiron vafotidan keyingi dastlabki yillarda murakkab vaziyatni bartaraf etib, saltanat jilovini mahkam ushlashga qodir kuchli shaxs, ya'ni hukmdor topilmadi.

Bu paytda qonuniy taxt vorisi Pirmuhammad sodir bo'layotgan voqealardan batafsil xabardor bo'lmay, g'aflatda edi. Yoshligini jang maydonlarida o'tkazgan Pirmuhammadxon keyingi paytlarda aysh-ishratga berilib, hukumatni boshqarish ishini ochko'z va hiylagar vaziri Pirali Tozga topshirib qo'ygan edi. Pirmuhammadxon bobokaloni Temurning vafoti haqidagi xabarni ishrat bazmida oldi. Bu paytda Samarqandda, saroy doirasida parokandalik va qarorsizlik hukm surar edi. Agar Pirmuhammadxon sharob kosalarini qo'yib, qo'lga urush qurolini olib, darhol askar to'plab Samarqand ustiga kelganda, buvasining taxtiga ega bo'lar edi. Lekin u kechikdi. Mironshohning Toshkentda yashayotgan 12 yashar o'g'li Xalil Sulton Mirzo harakat boshladi. U bu yerdagi bir necha obro'li zobitlarning quvvatlashi bilan buyuk bobosining taxtiga da'vogarlik qilib, to'siqchiliksiz Samarqand ustiga yurib, shaharni egalladi.

Garchi Shohruh 1405-1408 yillarda Xalil Sultondan Samarqandni tortib olib, otasi Amir Temurning toju taxtini egallashga harakat qilsa-da, ammo uddasidan chiqqa olmaydi. Bunga Balx, Seyiston, Xuroson va Ozarbayjonda temuriy shahzodalar va ayrim iqtidorli amirlarning birin-ketin ko'tarib turgan g'alayonlari jiddiy to'sqinlik qiladi. O'zaro taxt talashish natijasida Temurning valiahdi Pirmuhammad va uchinchi o'g'li Mironshoh g'alayon va fitnalarning qurboni bo'ldilar. Mironshohning halokati tufayli Ozarbayjon va Iroq temuriylar qo'lidan ketdi. G'alayonlardan foydalangan Mo'g'ulistondagi mo'g'ullar bosh ko'tardi. Oltin O'rda amiri Idiku Xorazmni egallab, Buxoro atrofida talonchilik bilan shug'ullandi.

To'g'ri, Shohruh kech bo'lsa-da, poytaxtni qo'lga kiritdi, lekin bungacha mamlakatda parokandalik boshlangan, saltanatning turli burchaklarida markaziy hokimiyatga bo'ysunmasdan, ajralib chiqish harakatlari sodir bo'layotgan edi.

Bunday boshboshdoqlikka barham berish maqsadida Shohruh boshlagan harakat mamlakat fuqarosining ko'pgina tabaqalari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Shu boisdan shohruh Temur hukmronligi o'rnatilgan viloyatlarni o'z qo'l ostiga olishga hamda mamlakatda osoyishtalik o'rnatishga harakat qildi.

Lekin Shohruh ham ba'zi xatolarga yo'l qo'ydi. U poytaxtni Hirotga ko'chirib katta xato qildi. Amalda mamlakat ikkiga ajraldi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan Xuroson davlati bo'lib, unga Shohruh boshchilik qilardi va Hirot uning poytaxti edi. Ikkinchisi esa, Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkistonda vujudga Ulug'bek davlati bo'lib, uning markazi Samarqand shahri edi.

Poytaxtning Hirotga ko'chirilishi va saltanatning parchalanishi davlatning kuch-qudrati hamda xalqaro mavqeining pasayishiga olib keldi.

Bitiruv-malakaviy ishi doirasida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- Amir Temur davrida yaratilgan manbalar, u haqda qilingan ilmiy ishlar va yozilgan asarlarning asosan Sohibqiron faoliyatiga bag'ishlanganini hisobga olib, uning vafotidan keyingi tarixiy jarayonlarni kengroq o'rganish;

- Tarix ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun "Amir Temur davlati va uning Markaziy Osiyoda tutgan o'rni" fani doirasida ushbu mavzuni o'qitish;

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Amir Temur vafotidan keyingi voqealarga bag'ishlangan mavzular soatini ko'paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Amir Temur haqida so'z. T.:O'zbekiston-1996. Asarlar. T.:O'zbekiston-1997. Jild V.
2. Karimov I.A. Sohibqiron kamolga yetgan yurt. Asarlar. T.:O'zbekiston. 1997. Jild V.
3. Karimov I. A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir. Asarlar. T.:O'zbekiston-1997. Jild V.
4. Karimov I. A. Amir Temur faxrimiz-g'ururimiz. Asarlar. T.:O'zbekiston-1997. Jild V.
5. Abdurazzoq Samarqndiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. T.:O'zbekiston-2008. Mas'ul muharrirlar- Aziz Qayumov, Muhammad Ali.
6. Ahmedov. B. Amir Temur darslari. T.:Sharq-2001. 144 b.
7. Ahmedov. B. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.:O'qituvchi-1996. 310 b.
8. Aminov. B. Qadamingizga hasanot Sohibqiron//Toshkent oqshomi-1996.
9. Amir Temur vasiyati. T.:O'zbekiston-1991. Bo'riboy Ahmedov tahriri ostida.
10. Amir Temur vasiyatlari, nasihatlari, tanbehlari. T.:O'zbekiston-2000. Mas'ul muharrir-K. Normurodov.
11. Amir Temur jahon tarixida. T.:Sharq-2001. Ish rahbari-S.Saidqosimov.
12. Amir Temur o'gitlari. T.:Navro'z-1992.
13. Bo'riyev Omonullo. Sohibqiron Amir Temur. T.:O'zbekiston-2011. 112 b.
14. Fayziyev Turg'un. Temuriylar shajarasi. T.:Yozuvchi-Xazina-1995. 352 b.
15. Fayziyev. T. Muhammad Tarag'ay avlodlari//Fan va turmush-1996.

16. Fayziyev. T. Ulkan sulola//Mehrgiyoh-1996.
17. Hamidova. M. Amir Temur vafotidan so'ng//Milliy tiklanish-1997.
18. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. T.:Mehnat-1992.
Mas'ul muharrir-A. O'rinboyev. 192 b.
19. Ismoil Aka. Buyuk Temur davlati. T.:Cho'lpon-1996. 160 b.
20. Ibrohimov A. Davlatning salobati. T.:O'zbekiston-2005.
21. Jamilov. S. Sohibqiron o'tgan yo'llar//O'zbek adabiyoti va san'ati-2006.
7-aprel.
22. Keren L. Amir Temur saltanati. T.:Ma'naviyat-1999. 224 b
23. Keren L., Saidov A. Amir Temur va Fransiya. T.:Adolat-1996. 15 b.
24. Matqurbonova Orzigul. Kuch adolatdadir. T.:Ma'rifat-2009.
25. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. T.:O'zbekiston-
2011. mas'ul muharrir- A.O'rinboyev. 264 b.
26. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. T.:Qomuslar bosh
tahririyati-1994. 158 b.
27. Mustafoyev M. Jahongirning so'nggi kunlari//Buxoro haqiqati-1995. 24-
may.
28. Olimov A. Amir Temurning sirli uzugi//Jahon adabiyoti-2006. N-2.
29. Oltinov M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov Amir
Temur davlatchiligi to'g'risida//Xalq ta'limi-2006. N-3.
30. Ostonova G. Bebaho xazinalar//Sog'lom avlod uchun-2005. N-1.
31. Sodiq Hamdam. Sohibqironning so'nggi safari//O'zbekiston ovozi-1995.
23-fevral.
32. Sodiqov H. Buyuk ajdodlarimiz//Vatanparvar-1994. 4-oktyabr.
33. Temur va Ulug'bek davri. T.:Qomuslar bosh tahririyati-1996. 264 b.
- 34.Vamberi Herman. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.:G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti-1990. 96 b.
35. Xilda Xukxem.Yetti iqlim Sultoni. T.:Adolat-1999. Mas'ul muharrir-
Hasan To'rabekov. 320 b.
36. Ziyov A. Amir Temur va temuriylar. T.:O'zbekiston ovozi-1996.
37. Ziyov A. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.:Sharq-2000. 364 b.

38. Ziyoyev H. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. T.:Ma'naviyat-2008.
39. O'ljayeva Shohista. Shohruh Mirzo o'g'itlari//Moziydan sado-2003. N-2.
40. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Amir Temur tavalludining 660 yillisini nishonlash to'g'risida"gi Qarori//Toshkent haqiqati-1995. 4-yanvar.
41. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.:Sharq nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati-1997. 384 b.
42. Cherevanskiy V. Amir Temur. Bolaligi, jangovar yo'li, vafoti. T.:Yozuvchi-1993.
43. Cherevanskiy V. Amir Temur//Turkiston-1992, aprel.
44. indiana.edu Amir Temur.
45. jizzax.uz Jizzax viloyati tarixi.
46. lectures.ndpi.uz Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligi.
47. zyouz.com Amir Temur.

Mundarija

Kirish	3-9
Xitoy yurishiga tayyorgarlik va Amir Temur vafoti.....	10-30
Temur vafotidan keyin toj-taxt uchun kurash.....	31-54
Shohruhning hokimiyat tepasiga kelishi.....	55-68
Xulosa	69-72
Adabiyotlar	72-75